This article analyzes common phraseological units in Uzbek and English, highlighting similarities and differences in meaning and use. The main attention is paid to the difficulties that arise in the process of translating phraseological units from one language to another and issues of lexical equivalence. The results of the study serve to deepen understanding of both languages and reveal important aspects of interlingual phraseology.

Keywords: Phraseological units, English phraseologisms, Uzbek phraseologisms, linguistic analysis, semantic differences, idiomatic expressions.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi keng tarqalgan frazeologik birliklar tahlil qilinib, ma'nosi hamda qo'llanishidagi o'xshash va farqli jihatlar yoritiladi. Asosiy e'tibor frazeologik birliklarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda leksik ekvivalentlik masalalariga qaratiladi. Tadqiqot natijalari har ikki tilni chuqurroq anglashga xizmat qiladi va tillararo frazeologiyani muhim jihatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, ingliz tili frazeologizmlari, o'zbek tili frazeologizmlari, lingvistik tahlil, semantik farqlar, idiomatik ifodalar.

Frazeologik birliklar tilning obrazli va milliy-madaniy qatlamini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shu bois frazeologizmlar nafaqat leksik birlik sifatida, balki lingvomadaniy hodisa sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo'lsa-da, har ikkala tilda ham mazmunan yaqin yoki o'xshash frazeologik birliklar uchraydi. Biroq ularning shakliy tuzilishi, semantik ko'lami hamda qo'llanish xususiyatlarida muayyan farqlar mavjud. Mazkur jihatlar frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi hamda ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash, shuningdek, frazeologik birliklarni to'g'ri talqin va tarjima qilishga ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Jahon tilshunosligida rus olimlaridan A.Kunin, V.Vinogradov, N.Shanskiy bu masalada tadqiqot olib borgan¹. Jumladan, A.Kunin frazeologik birliklar kelib chiqishi, semantikasi, tarjimasini va madaniy jihatlarini chuqur tahlil qilib, ta'riflab bergan².

Bir qator o'zbek olimlari ham frazeologik birliklar ustida tadqiqot olib borishgan. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Yusupovlar bu borada o'z fikrlarini bildirishgan.³

Frazeologik birliklar (idiomalar) tilshunoslikda turli mezonlar asosida tahlilqilingan bo'lib, ularning tasniflash masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Frazeologik birliklarni

¹ Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). — М.: Высшая школа, 1972. — 639 с.; Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц русского языка // Лексикология и лексикография. — М.: Наука, 1977. — С. 140–161; Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996. — 381 с.; Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. — М.: Высшая школа, 1985. — 160 с.

² Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996. — 381 с.

³ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1978. — 320 б.; Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 224 б.; Yusupov A. English-Uzbek Idioms Dictionary. — Т.: O'qituvchi, 1998. — 256 p.

guruhlashda asosan semantik yaxlitlik, strukturaviy tuzilish, funksional xususiyat va uslubiy belgilarga tayaniladi.

Frazeologik birliklarning eng mashhur tasniflaridan biri V.V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan⁴. U frazeologik birliklarni semantik darajasiga ko'ra uch guruhga ajratadi: frazeologik chatishmalar, frazeologik birliklar va frazeologik qo'shilmalar. Frazeologik chatishmalarda ma'no to'liq ko'chma bo'lib, tarkibiy qismlar o'z mustaqil ma'nosini yo'qotadi. Frazeologik birliklarda esa obrazlilik saqlanadi va umumiy ma'no bilan komponentlar o'rtasida ma'lum bog'liqlik mavjud bo'ladi. Frazeologik qo'shilmalarda esa komponentlardan biri ko'chma ma'noda qo'llanadi, shu sababli ularning umumiy ma'nosi nisbatan tushunarliroq hisoblanadi. Ushbu tasnif idiomatiklik darajasini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologiyani struktur-semantik va funksional jihatdan o'rganishda A.V. Kuninning hissasi katta⁵. U frazeologik birliklarni nutqdagi vazifasiga ko'ra nominativ, nominativ-kommunikativ, kommunikativ hamda interjeksion turlarga ajratadi. Bu yondashuv idiomalarning nafaqat ma'no, balki kommunikativ vazifasini ham yoritib beradi. Xususan, kommunikativ frazeologik birliklar mustaqil hukm sifatida qo'llanadi.

Frazeologik birliklar til tizimining ajralmas qismi bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy tafakkurini o'zida mujassam etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish ushbu birliklarning semantik, strukturaviy hamda lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Har ikki tilda frazeologik birliklar ko'chma ma'noga ega bo'lib, ularning umumiy ma'nosi tarkibiy qismlar ma'nosidan kelib chiqmaydi yoki qisman kelib chiqadi.

Semantik jihatdan qaralganda, ingliz va o'zbek tillarida to'liq, qisman va nol ekvivalent frazeologik birliklar mavjud. To'liq ekvivalent birliklar ma'no va obraz jihatdan bir-biriga yaqin bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "To kill two birds with one stone" iborasi o'zbek tilidagi "Bir o'q bilan ikki quyovni urmoq" frazeologizmi bilan semantik jihatdan mos keladi. Har ikkala birlik bir harakat orqali ikki natijaga erishish ma'nosini anglatadi. Bunday birliklar tarjima jarayonida nisbatan kam muammo tug'diradi.

Qisman ekvivalent frazeologizmlar esa umumiy ma'nosi jihatidan o'xshash bo'lsa-da, obraz va ifoda vositalarida farqlanadi. Masalan, ingliz tilidagi "When pigs fly" iborasi o'zbek tilidagi "Tuyaning dumi yerga tekkanda" birligi bilan ma'nodosh hisoblanadi. Ikkala ibora ham imkonsiz holatni bildiradi, biroq obrazli asos turlicha. Bu holat har bir xalqning milliy tasavvuri va madaniy tajribasi bilan bog'liq.

Ekvivalentsiz frazeologik birliklar esa muayyan til va madaniyat doirasida shakllanadi. Masalan, "To carry coals to Newcastle" iborasi Angliyaning tarixiy-geografik sharoitiga asoslangan bo'lib, ortiqcha yoki keraksiz ish qilish ma'nosini anglatadi. O'zbek tilidagi "Do'ppisini osmonga otmoq" frazeologizmi esa milliy madaniyatga xos quvonch ifodasini bildiradi. Bunday birliklarni tarjima qilishda ko'pincha izohli yoki funksional muqobil usuldan foydalaniladi.

Strukturaviy jihatdan ingliz va o'zbek tillari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tili analitik til bo'lib, frazeologik birliklar ko'pincha fe'lli birikma shaklida qo'llanadi, masalan, "break the ice", "spill the beans", "kick the bucket". O'zbek tili esa agglutinatив til sifatida frazeologik birliklarni grammatik qo'shimchalar orqali turli shakllarda ifodalash imkoniyatiga ega. O'zbek tilida frazeologizmlar nafaqat fe'lli birikma, balki sifatlovchi birikma yoki butun gap shaklida ham uchraydi. Masalan, "Og'zi qulog'ida", "Ko'ngli tog'dek ko'tarildi" kabi birliklar tasviriy va emotsional xarakterga ega.

Lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinganda, frazeologik birliklar har ikki xalqning yashash tarzi va tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Ingliz tilidagi ko'plab iboralar dengizchilik, savdo-sotiq va sanoat bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilidagi frazeologizmlar ko'proq dehqonchilik, chorvachilik va

⁴ Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). — М.: Высшая школа, 1972. — 639 с.; Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц русского языка // Лексикология и лексикография. — М.: Наука, 1977. — С. 140–161;

⁵ Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996. — 381 с.

milliy urf-odatlar bilan chambarchas bog'langan. Bu farqlar tilning madaniyat bilan uzviy aloqadorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Frazeologik birliklarning funksional xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nutqqa obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallik bag'ishlaydi. Badiiy adabiyotda frazeologizmlar qahramon nutqini jonlantirish, muallif pozitsiyasini ifodalash va stilistik ta'sirni kuchaytirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Kundalik og'zaki nutqda esa ular fikrni qisqa va ta'sirchan shaklda ifodalash imkonini beradi.

Tarjima jarayonida frazeologik birliklarning to'g'ri talqini alohida e'tibor talab qiladi. So'zma-so'z tarjima ko'pincha ma'no buzilishiga olib keladi, chunki frazeologizmlarning asl ma'nosi ko'chma xarakterga ega. Shu sababli tarjimada kontekstni hisobga olish, semantik muvofiqlikni ta'minlash va zarur hollarda izohli tarjimadan foydalanish muhim hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar nutqga obrazlilik va ekspressivlik beradi hamda xalqning madaniy qadriyatlarini va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Har ikkala tilda to'liq va qisman ekvivalent birliklar mavjud bo'lib, bu ularning semantik o'xshashligini ko'rsatadi. Biroq struktura va madaniy obrazlarda farqlar seziladi: ingliz frazeologizmlari ko'pincha fe'lli birikma shaklida bo'lsa, o'zbek birliklari grammatik jihatdan moslashuvchan va milliy obrazlarga boy. Shu sababli tarjimada milliy xususiyatni hisobga olish muhimdir. Umuman, qiyosiy tahlil frazeologizmlarning til va madaniyatga oid universal hamda milliy jihatlarini ochib beradi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, tarjima jarayonidagi muammolarni tushunish hamda lingvomadaniy xususiyatlarni ochib berishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Bally Ch. *Traité de stylistique française*. — Paris: Klincksieck, 1909. — 2 vol.

Kendjaeva, G. F. (2020). The methods of translating phraseological units in the Russian and English translations of the novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 9(89), 316-321.

KENJAYEVA, G. (2021). INTERPRETATION OF HOUSEHOLD REALITIES IN TRANSLATIONS OF A. KADIRI'S NOVEL "DAYS GONE BY". In *E-Conference Globe* (pp. 323-227).

Кенджаева, Г. Ф. (2021). МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В РОМАНЕ А. КАДЫРИ «МИНУВЩИЕ ДНИ». *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-2).

Fattilloevna, K. G. (2021). Methods of Rendering Realias in the Translations of the Novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. *JournalNX*, 7(09), 166-171.

Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.

Nurullayevna, S. N., & Nuriddinovna, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 269.

Salikhova, N. N. (2018). MACRO CLASSROOM MANAGEMENT WITH SHORTAGE OF BOOKS. *Теория и практика современной науки*, (3 (33)), 63-65.

Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). Methods Of Cognitive-Behavioral Psychotherapy In The Treatment Of Rheumatoid Arthritis. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 701-706.

Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Та'sirlangan ichak sindromida nevroitik buzilishlarni differensial taxlili va tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish (Doctoral dissertation).

Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). Depressive-anxiety disorders in patients with rheumatoid arthritis and methods of their psychocorrection. *Interpretation and researches*, 2(3), 9-16.

АНАМИЯТИ, D., & Махаматжанова, N. M. FS Mirxaydarova. SM Mirxaydarova *Академические исследования в современной науке*, 2(7), 19-20.

- Hamraev, B., & Maxamatjanova, N. (2023). Modern methods of treatment of sexual disorders. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(15), 73-74.
- Gafurova, S. S., Sharodiya, D., & Alimuhamedova, S. J. (2025). TO IDENTIFY ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND STUDY THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE BEHAVIORAL THERAPY IN THEM.
- Xamdamovna, I. M. (2025). TA'LIM JARAYONIDA O'YIN ASOSIDAGI METODLARNING NAZARIY ASOSLARI. *IZLANUVCHI*, 1(6), 312-327.
- Xamdamovna, I. M. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF ASINETONE SPECIES IN ENGLISH AND UZBEK. *Scientific progress*, 3(3), 397-400.
- Xamdamovna, I. M. (2025). HÖRVERSTÄNDNIS UND LESEN IN ENGLISCH PSYCHOLINGUISTISCHE KLASSIFIZIERUNG VON ÜBUNGEN FÜR SPRACHAKTIVITÄTEN. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(4), 103-107.
- ULUGBEKOVNA, R. S. (2020). The First Period of Washington Irving's.
- Нурмухаметова, С., & Расулова, С. (2022). The influence of Samuel Taylor Coleridge as a poet, critic and philosopher to english literature. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 39-40.
- Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей АИ Куприна 1890-1910 годах. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 502-504.
- Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов Александра Куприна. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 2), 172-174. qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). THE ROLE OF PRAGMATICS FOR LEARNING ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Scientific Research*, 3(7), 51-56.
- qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF CONCEPTS IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES. *International Journal American Journal of Modern World Sciences*, 2(7), 59-67.
- Nadjmiddinova, M. N. (2025, October). NEW INTERPRETATIONS OF THE TRANSLATION METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 7, pp. 112-116)*.
- Fayzullayeva, M. B. (2023). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 131-134.
- Файзуллаева, М. (2023). Лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери в произведениях Уткира Хашимова. *Общество и инновации*, 4(9), 295-298.
- Fayzullayeva, M. B., Sattarova, I. B., & Makhmudova, M. A. (2021). The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1632-1637.
- Akbaralievich, L. A. (2025). THE INFLUENCE OF ENGLISH LOANWORDS ON THE MODERN UZBEK LANGUAGE. *SHOKH LIBRARY*, 1(12).
- Akbaralievich, L. A. (2023). CONTINUOUS PHASE AND MEANS OF USE IN UZBEK LANGUAGE. *MATERIALLAR TO'PLAMI*, 390.
- Latipov, A. A. (2023). FINAL PHASE "TO STOP" AND THEIR EXPRESSIONS IN UZBEK LANGUAGE. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 192-195.
- Ибадуллаев, Ф. (2024). Сравнительный анализ образовательных систем Финляндии и Узбекистана. *Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов*, 1(1), 97-99.
- Ибадуллаев, Ф. Ф. (2016). Несколько записей о формирование текста. *Ученый XXI века*, (4-4 (17)), 46-48.

- Yuldasheva, S. (2020). Importance of using various pedagogical technologies in lessons. *Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19)*, 1(04), 126-128.
- Yuldasheva, S. T. (2021). Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher. *International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology*, 9(11).
- Муродова, Ф. (2025). The importance of country research project for developing language skills. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, 1(1), 426-428.
- JAMALOVA, N. (2020). BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 32(2).
- JAMALOVA, N. (2022). Pedagogical Conditions for the Development of Individual Characteristics of Students of a Higher Educational Institution.
- Turakhanov, R. (2025). Graphic systems of uzbekistan: historical foundations, contemporary challenges, and future development of alphabets. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 1196-1200.
- Turakhanov, R. (2025). THE CONCEPT OF THE IDEAL HUMAN IN ISLAMIC LITERATURE: A MULTIDISCIPLINARY ANALYSIS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(3), 807-810.
- Васильченко, Л. А. (2024). *У Міжнародний форум експертів із менопаузальної гормональної терапії.*
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ИЗМЕНЕНИЕ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТРИМЕСТРА БЕРЕМЕННОСТИ. *Confrencea*, 1(1), 198-200.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ОСОБЕННОСТИ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ. *Confrencea*, 1(1), 204-205.
- Ахмедова, А. Т., Султонова, М., & Омонова, М. (2024). СОМАТИЧЕСКАЯ КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ ПЕРВОЙ БЕРЕМЕННОСТИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 4(1-2), 60-67.
- Тлегенов, М. Т. (2021). ПОПУЛЯЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. *БК 1 Р76*, 27.
- Тлегенов, М. Т. (2026). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИИ ПЕСЧАНКИ (MERIONES TAMARISCINUS) В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Advances in Science and Environment*, 2(03), 21-24.
- Тлегенов, М. Т., & Утемуратова, Г. Н. (2012). ОЦЕНКА ОБИЛИЯ НАСЕЛЕНИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Аспирант и соискатель*, (6), 66-68.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). CLINICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE DISORDERS AND THYROID GLAND HORMONES IN HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 506-511.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). STRUCTURE OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 512-518.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 526-532.
- Муминова, Н. А. (2014). Формирование гармонично развитой личности как цель воспитания в современном демократическом обществе. *Молодой ученый*, (9), 502-505.
- Djabbarov, X. D., & Muminova, N. A. (2021). Роль лексико-семантических средств в интерпретации антропонима тарагай и топонима тарагай. *Theoretical & Applied Science*, (1), 406-411.



- Madina, S. (2026). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE LEXICON RELATED TO INTERNET ADVERTISING. SCHOLAR, 4(1), 108-112.
- Cowie A. P. (ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. — Oxford: Oxford University Press, 1998. — 272 p.

Comparative Analysis Of The Origin And Adaptation Of Original Words In English And Uzbekistan

O'ktamova Mokhigul Khamidullo-kizi

Senior Lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

Ravshanova Jayrona,

Student of Fergana State University

Annotation

This article provides a comparative analysis of the origin, morphological and phonetic adaptation, and lexical adoption of loanwords in English and Uzbek. The study studies not only words that entered the Uzbek language from English, but also words that were borrowed from other languages in English. The article compares the pronunciation, spelling, role in syntax, and semantic changes of loanwords. This identifies linguistic processes between the two languages, lexical changes, and the development of the language in a cultural context. The results of the study may be useful in understanding loanwords and studying language development.

Keywords: loanwords; lexical acquisition; language contacts; phonetic adaptation; morphological adaptation; semantic adaptation; integration process; English.

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi, morfologik va fonetik moslashuvi hamda leksik qabul qilinishini qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqotda nafaqat ingliz tilidan o'zbek tiliga kirgan so'zlar, balki ingliz tilida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham o'rganiladi. Maqolada o'zlashma so'zlarning talaffuzi, imlosi, sintaksisdagi roli va semantik o'zgarishlari solishtiriladi. Shu orqali ikki til o'rtasidagi lingvistik jarayonlar, leksik o'zgarishlar va tilning madaniy kontekstdagi rivoji aniqlanadi. Tadqiqot natijalari o'zlashma so'zlarni tushunish va til rivojini o'rganishda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: olinma so'zlar; leksik o'zlashma; til kontaktlari; fonetik moslashuv; morfologik moslashuv; semantik moslashuv; integratsiya jarayoni; ingliz tili.

Olinma so'zlar, ya'ni boshqa tillardan kirib kelgan leksik birliklar, har bir tilning lug'aviy boyligini boyitishda muhim va ahamiyatli rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillarida olinma so'zlar turli tarixiy davrlarda shakllanib, o'z o'rnini topgan. Ingliz tilida bu jarayon asosan norman istilosidan boshlab sezilarli darajada kuchaygan, so'nggi asrlarda esa fransuz, italyan va boshqa tillardan ko'plab yangi so'zlar kirib kelgan. O'zbek tilida esa asosan fors va arab tillaridan olingan so'zlar tarixan keng tarqalgan va kundalik nutqda faol ishlatiladi. Olinma so'zlarning tilga qabul qilinishi nafaqat lug'atni, balki talaffuz, morfologiya va semantika tizimini ham sezilarli darajada o'zgartiradi. Shu bilan birga, ular turli tillarda fonetik va morfologik moslashuv jarayonlariga duch keladi, masalan, talaffuzni o'zlashtirish, grammatikaga moslashish va ma'no o'zgarishi kabi.

Mazkur masala jahon tilshunosligida ham keng o'rganilgan. Olinma so'zlarning nazariy asoslarini ishlab chiqishda E.Haugen, S. Tomason va T.Kofman¹ kabi olimlar til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan leksik o'zgarishlarning ijtimoiy va lingvistik omillarini tahlil qilganlar. Xususan, E. Haugen² o'zlashma so'zlarning til tizimiga integratsiyalashuv bosqichlarini izchil ravishda tasniflab bergan bo'lsa, S. Tomason va T. Kofman³ til kontaktlari jarayonini tarixiy hamda strukturaviy nuqtai nazardan izohlaydilar. Ingliz tilidagi olinma qatlamni tarixiy-etimologik jihatdan o'rganishda F.Durkin hamda D.Kristalning⁴ ishlari alohida ahamiyatga ega

¹ Haugen E. The Norwegian Language in America: A Study in Bilingual Behavior. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1953; Thomason S. G., Kaufman T. Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. – Berkeley: University of California Press, 1988.

² Haugen E. The Norwegian Language in America: A Study in Bilingual Behavior. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1953

³ Thomason S. G., Kaufman T. Language Contact, Creolization, and Genetic Linguistics. – Berkeley: University of California Press, 1988

⁴ Durkin P. Borrowed Words: A History of Loanwords in English. – Oxford: Oxford University Press, 2014; Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995.

bo'lib, ular ingliz tilining turli davrlarda boshqa tillar bilan aloqasi natijasida boyib borishini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida ham ingliz va rus tillaridan kirgan leksik birliklarning qo'llanishi va moslashuv masalasi alohida tadqiq etilgan. Jumladan, G.G'ulomova, U.Kuziyev, Muslih A.Shikib va D. Rustamov⁵ inglizcha olinma so'zlarning o'zbek tilida fonetik va grammatik jihatdan qay tarzda o'zlashishini, ularning yozma nutqda mustahkamlanish jarayonini ilmiy asosda yoritganlar.

Shuningdek, sovet davri rus tilshunosligida turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili leksikasining shakllanishi va o'zlashmalar masalasi ham muhim o'rin egallagan. Ye. Polivanov, V.Radlov va A. Reformatskiy⁶ tadqiqotlarida til tizimiga kirgan birliklarning fonologik moslashuvi, etimologik qatlamni aniqlash va strukturaviy integratsiya jarayonlari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Olinma so'zlar — bu bir tilning boshqa til elementlarini qabul qilishi natijasida shakllangan leksik birliklardir. Ular nutq jarayonida fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashadi va til tizimiga integratsiyalanadi. Olinma so'zlar til tarixida, madaniy va ijtimoiy aloqalarda muhim rol o'ynaydi, chunki ular yangi tushunchalarni, texnologik yangiliklarni va ilmiy terminlarni qabul qiluvchi tilga olib kiradi.

Ingliz tilshunos olimi F.Durkin o'zining *Olinma so'zlar: Ingliz tilidagi loanwordlar tarixi* (Borrowed Words: A History of Loanwords in English, 2009) asarida olinma so'zlarni tarixiy va etimologik mezonlar asosida quyidagicha tasniflaydi:

1. Bevosita o'zlashmalar
2. Bilvosita o'zlashmalar
3. Qadimiy va zamonaviy o'zlashmalar

Bevosita o'zlashmalar — bu manba til shakli deyarli saqlangan va fonetik jihatdan minimal o'zgarishga duch kelgan olinma so'zlardir. Bunday so'zlar nutq jarayonida qabul qiluvchi tilga to'g'ridan-to'g'ri kiradi va odatda talaffuzda yoki yozuvda faqat kichik moslashuvlarga uchraydi. Masalan, fransuzcha *entrepreneur*, *café* va *rendezvous* so'zlari ingliz tiliga deyarli o'zgarmagan shaklda kirgan bevosita o'zlashmalardir.

Bilvosita o'zlashmalar — bu boshqa vositachi til orqali kirgan va qisman moslashgan olinma so'zlardir. Ular ko'pincha fonetik va morfologik jihatdan qisman o'zgaradi, lekin manba tili ildizini saqlab qoladi. Masalan, arabcha *algebra* so'zi lotin tili orqali ingliz tiliga kirgan, shuningdek, yunoncha *philosophy* so'zi fransuzcha vositachilik orqali ingliz tiliga o'tgan.

Qadimiy va zamonaviy o'zlashmalar. So'zlarning kirib kelish vaqtiga qarab ularni qadimiy va zamonaviy o'zlashmalar deb ajratish mumkin. Qadimiy o'zlashmalar tarixiy jihatdan eski manbadan kelib, tilning klassik qatlamiga kiradi; masalan, fransuzcha *ballet* va *fiancée* so'zlari. Zamonaviy o'zlashmalar esa texnologik, ilmiy yoki ijtimoiy yangiliklar natijasida tilga kirgan bo'lib, masalan, *computer*, *internet* va *software* so'zlari zamonaviy o'zlashmalardir.

Einar Haugen o'z asarlarida, xususan *Lingvistik o'zlashmalar tahlili* (The Analysis of Linguistic Borrowing, 1950) va *Amerikada ikki tillilik* (Bilingualism in the Americas, 1969) asarlarida olinma so'zlarni til kontaktlari va integratsiya darajasi asosida tahlil qiladi. Uning fikricha, olinma so'zlar nafaqat boshqa tillardan kirgan birliklar, balki ular qabul qiluvchi tilning fonetik, morfologik va semantik tizimiga moslashish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Haugenning yondashuvi ko'proq til kontaktlari nazariyasi va ikki tillilik kontekstiga asoslangan bo'lib, u olinma so'zlarni ularning integratsiya darajasi va funksional moslashuviga qarab quyidagicha tasniflaydi:

1. To'liq integratsiyalashgan o'zlashmalar
2. Qisman integratsiyalashgan o'zlashmalar

⁵ Гуломова Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. — Москва: Наука, 1985; Shikib M.A. Functioning of English Borrowed Words in Uzbek and Dari Written Sources. — Kabul: [nashriyot], 2012; Kuziyev U. Stages of Standardization of Loanwords in Uzbek Language. — Tashkent: Universitet, 2015; Rustamov D. Grammatical and Phonetic Analysis of Modern Borrowed Words in the Uzbek Language. — Tashkent: Fan, 2010.

⁶ Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию (1920–1930-е гг.). — Москва: Наука, 1968; Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. — Санкт-Петербург: Типография Императорской Академии наук, 1883–1911; Реформатский А.А. Введение в языкознание. — Москва: Просвещение, 1967.

3. Qabul qiluvchi tilga kam moslashgan o'zlashmalar

To'liq integratsiyalashgan o'zlashmalar qabul qiluvchi tilning fonetik va morfologik tizimiga to'liq moslashgan bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi *piano* so'zi italiyanchadan kirgan, lekin fonetik jihatdan ingliz tiliga moslashgan va morfologik jihatdan qo'shimchalar bilan ishlatiladi, masalan *pianos* (ko'plik).

Qisman integratsiyalashgan o'zlashmalar fonetik, morfologik yoki semantik jihatdan qisman moslashadi, ammo manba til ildizi seziladi. Masalan, ingliz tilidagi *genre* (fransuzcha) yoki *bazaar* (forscha/arablashgan) so'zlari ingliz tilida ishlatiladi, lekin talaffuz va ba'zi morfologik xususiyatlar manba tilga yaqin qoladi.

Qabul qiluvchi tilga kam moslashgan o'zlashmalar. Bu tur so'zlar fonetik va morfologik jihatdan deyarli o'zgarmagan holda kiradi va qabul qiluvchi til nutqida o'ziga xos "chet el" xarakterini saqlaydi. Masalan, *résumé* (fransuzcha) yoki *doppelgänger* (nemischa) so'zlari ingliz tilida ishlatilganda fonetik jihatdan manba tilni eslatadi.

G.G. G'ulomova esa olinma so'zlarni klassifikatsiya qilishda ularning til ichidagi moslashuv jarayoniga e'tibor qaratadi va o'zining *Ruscha leksik o'zlashmalar o'zbek tilida* ("Русские лексические заимствования в узбекском языке, 1985) asarida olinma so'zlarni quyidagi shaklda tasniflaydi:

1. Fonetik moslashuv
2. Morfologik moslashuv
3. Semantik moslashuv

Fonetik moslashuv — bu so'zlarning talaffuzi va tovush tizimi jihatidan qabul qiluvchi tilga moslashishi jarayonidir. Bunday so'zlar o'zbek tilining fonetik qoidalariga muvofiq o'zgaradi, urg'u va tovushlar soddalashadi. Masalan, ruscha *школа* so'zi o'zbek tiliga shkola shaklida kiradi, yoki *музей* → muzey. Bu misollar so'zlarning fonetik jihatdan integratsiyalashishini ko'rsatadi.

Morfologik moslashuv — bu olinma so'zning o'zbek tilidagi morfologik tizimga moslashishi, qo'shimchalarni qabul qilishi va so'z yasalişhida qatnashishi jarayonidir. Masalan, ruscha *компьютер* so'zi o'zbek tiliga kompyuter shaklida kirib, ko'plik qo'shimchasi bilan kompyuterlar sifatida ishlatiladi. Yoki *телефон* → telefonlar. Bu misollar so'zlarning morfologik jihatdan qabul qiluvchi tilga moslashishini namoyish etadi.

Semantik moslashuv — bu so'zning ma'nosining qabul qiluvchi til kontekstida torayishi yoki kengayishi jarayonidir. Masalan, ruscha *магистр* so'zi o'zbek tilida ilmiy daraja bilan bog'liq holda yangi ma'noda ishlatiladi. Shuningdek, *директор* so'zi boshqaruvchi ma'nosida umumiy tilga moslashadi. Bu misollar so'zlarning semantik jihatdan adaptatsiyasini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida olinma so'zlar shakllanishi turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq. Har ikki til tajribasida o'zlashmalar nafaqat lug'aviy boylikni kengaytirgan, balki tilning fonetik, morfologik hamda semantik tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tarixiy-etimologik yondashuv asosida F. Durkin tomonidan taklif etilgan tasnif ingliz tilidagi olinma qatlamni davriy va strukturaviy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Bevosita o'zlashmalar ingliz tilida fonetik jihatdan minimal o'zgarishga uchragan bo'lsa, bilvosita o'zlashmalar vositachi tillar orqali kirib, ko'proq strukturaviy transformatsiyaga duch kelgan. Qadimiy va zamonaviy o'zlashmalar o'rtasidagi farq esa tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy davrda ingliz tiliga kirayotgan texnologik terminlar ko'pincha global kommunikatsiya natijasida tez integratsiyalashadi.

Til kontaktlari nazariyasi nuqtai nazaridan Einar Haugen konsepsiyasi olinma so'zlarning integratsiya darajasini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida to'liq integratsiyalashgan o'zlashmalar qabul qiluvchi tilning grammatik tizimida faol ishlatilishi, qisman integratsiyalashgan birliklar esa fonetik yoki morfologik izlarni saqlab qolishi aniqlandi. Kam moslashgan o'zlashmalar esa ko'pincha yozma nutqda yoki maxsus terminologiyada saqlanib qoladi.

O'zbek tilshunosligi doirasida G.G'ulomova tomonidan ilgari surilgan fonetik, morfologik va semantik moslashuv tasnifi amaliy jihatdan samarali ekanligi kuzatildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- Fonetik moslashuv o'zbek tilining tovush tizimi va urg'u qonuniyatlariga muvofiq amalga oshadi.
- Morfologik moslashuv jarayonida olinma so'zlar o'zbekcha qo'shimchalarni erkin qabul qiladi va so'z yasashida faol qatnashadi.
- Semantik moslashuv natijasida ayrim so'zlar ma'no torayishi yoki kengayishiga uchraydi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilida olinma qatlam tarixiy istilolar va global aloqalar bilan bog'liq ravishda shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida esa asosan madaniy-diniy va siyosiy aloqalar (arab, fors, rus tillari bilan) muhim rol o'ynagan. Har ikkala til tajribasida ham o'zlashmalar til tizimining tabiiy rivojlanish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari olinma so'zlar til boyishini ta'minlovchi dinamik va ko'p bosqichli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Ularning integratsiya darajasi tarixiy sharoit, ijtimoiy ehtiyoj va lingvistik moslashuv mexanizmlariga bevosita bog'liqdir.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida olinma so'zlar shakllanishi turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq. Har ikki til tajribasida o'zlashmalar nafaqat lug'aviy boylikni kengaytirgan, balki tilning fonetik, morfologik hamda semantik tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tarixiy-etimologik yondashuv asosida F. Durkin tomonidan taklif etilgan tasnif ingliz tilidagi olinma qatlamni davriy va strukturaviy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Bevosita o'zlashmalar ingliz tilida fonetik jihatdan minimal o'zgarishga uchragan bo'lsa, bilvosita o'zlashmalar vositachi tillar orqali kirib, ko'proq strukturaviy transformatsiyaga duch kelgan. Qadimiy va zamonaviy o'zlashmalar o'rtasidagi farq esa tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy davrda ingliz tiliga kirayotgan texnologik terminlar ko'pincha global kommunikatsiya natijasida tez integratsiyalashadi.

Til kontaktlari nazariyasi nuqtai nazaridan Einar Haugen konsepsiyasi olinma so'zlarning integratsiya darajasini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida to'liq integratsiyalashgan o'zlashmalar qabul qiluvchi tilning grammatik tizimida faol ishlatilishi, qisman integratsiyalashgan birliklar esa fonetik yoki morfologik izlarni saqlab qolishi aniqlandi. Kam moslashgan o'zlashmalar esa ko'pincha yozma nutqda yoki maxsus terminologiyada saqlanib qoladi.

O'zbek tilshunosligi doirasida G.G'ulomova tomonidan ilgari surilgan fonetik, morfologik va semantik moslashuv tasnifi amaliy jihatdan samarali ekanligi kuzatildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- Fonetik moslashuv o'zbek tilining tovush tizimi va urg'u qonuniyatlariga muvofiq amalga oshadi.
- Morfologik moslashuv jarayonida olinma so'zlar o'zbekcha qo'shimchalarni erkin qabul qiladi va so'z yasashida faol qatnashadi.
- Semantik moslashuv natijasida ayrim so'zlar ma'no torayishi yoki kengayishiga uchraydi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilida olinma qatlam tarixiy istilolar va global aloqalar bilan bog'liq ravishda shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida esa asosan madaniy-diniy va siyosiy aloqalar (arab, fors, rus tillari bilan) muhim rol o'ynagan. Har ikkala til tajribasida ham o'zlashmalar til tizimining tabiiy rivojlanish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirganda, ingliz va o'zbek tillarida olinma so'zlar shakllanishi tarixiy jarayonlarning mahsuli ekanligi ayon bo'ladi. O'zlashmalar har ikki tilning lug'aviy boyligini kengaytirish bilan birga, ularning fonetik, morfologik va semantik tizimiga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Fonetik moslashuv tovush tizimiga uyg'unlashish orqali amalga oshsa, morfologik moslashuv qo'shimchalar qabul qilish va so'z yasash jarayonida ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi. Semantik moslashuv esa ma'no torayishi, kengayishi yoki ixtisoslashuvi shaklida kuzatiladi.

Ingliz tilida o'zlashmalar asosan tarixiy istilolar, savdo-iqtisodiy aloqalar hamda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq holda shakllangan. O'zbek tilida esa madaniy-diniy va siyosiy omillar yetakchi ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy global jarayonlar har ikki tilga xalqaro terminlarning kirib kelishini tezlashtirib, ularning faol integratsiyasini ta'minlamoqda. Bu holat tillarning ochiq va dinamik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Tarixiy-etimologik tasnif, til kontaktlari nazariyasi hamda lingvistik moslashuv konsepsiyalari olinma so'zlarning mohiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. O'zlashmalar til tizimining zaiflashuvi emas, balki uning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashish va rivojlanish qobiliyatining ifodasidir. Ingliz va o'zbek tillarida olinma so'zlarni qiyosiy o'rganish ularning tarixiy taraqqiyotini aniqlash bilan birga, zamonaviy lingvistik jarayonlarni anglashga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Kendjaeva, G. F. (2020). The methods of translating phraseological units in the Russian and English translations of the novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 9(89), 316-321.
- KENJAYEVA, G. (2021). INTERPRETATION OF HOUSEHOLD REALITIES IN TRANSLATIONS OF A. KADIRI'S NOVEL "DAYS GONE BY". In *E-Conference Globe* (pp. 323-227).
- Кенджаева, Г. Ф. (2021). МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В РОМАНЕ А. КАДЫРИ «МИНУВЩИЕ ДНИ». *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(1-2).
- Fattilloevna, K. G. (2021). Methods of Rendering Realias in the Translations of the Novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. *JournalNX*, 7(09), 166-171.
- Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
- Nurullayevna, S. N., & Nuriddinovna, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 269.
- Salikhova, N. N. (2018). MACRO CLASSROOM MANAGEMENT WITH SHORTAGE OF BOOKS. *Теория и практика современной науки*, (3 (33)), 63-65.
- Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). Methods Of Cognitive-Behavioral Psychotherapy In The Treatment Of Rheumatoid Arthritis. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 701-706.
- Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Та'sirlangan ichak sindromida nevroitik buzilishlarni differensial taxlili va tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish (Doctoral dissertation).
- Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). Depressive-anxiety disorders in patients with rheumatoid arthritis and methods of their psychocorrection. *Interpretation and researches*, 2(3), 9-16.
- АНАМИЯТИ, Д., & Махаматжанова, Н. М. FS Mirxaydarova. SM Mirxaydarova *Академические исследования в современной науке*, 2(7), 19-20.
- Hamraev, B., & Махаматжанова, Н. (2023). Modern methods of treatment of sexual disorders. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(15), 73-74.
- Gafurova, S. S., Sharodiya, D., & Alimuhamedova, S. J. (2025). TO IDENTIFY ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND STUDY THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE BEHAVIORAL THERAPY IN THEM.
- Xamdamovna, I. M. (2025). TA'LIM JARAYONIDA O'YIN ASOSIDAGI METODLARNING NAZARIY ASOSLARI. *IZLANUVCHI*, 1(6), 312-327.
- Xamdamovna, I. M. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF ASINDETONE SPECIES IN ENGLISH AND UZBEK. *Scientific progress*, 3(3), 397-400.
- Xamdamovna, I. M. (2025). HÖRVERSTÄNDNIS UND LESEN IN ENGLISCH PSYCHOLINGUISTISCHE KLASSIFIZIERUNG VON ÜBUNGEN FÜR

SPRACHAKTIVITÄTEN. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(4), 103-107.

ULUGBEKOVNA, R. S. (2020). The First Period of Washington Irving's.

Нурмухаметова, С., & Расулова, С. (2022). The influence of Samuel Taylor Coleridge as a poet, critic and philosopher to english literature. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 39-40.

Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей АИ Куприна 1890-1910 годах. Намкор konferensiyalar, 1(2), 502-504.

Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов Александра Куприна. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 2), 172-174. qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). THE ROLE OF PRAGMATICS FOR LEARNING ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Modern Scientific Research, 3(7), 51-56.

qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF CONCEPTS IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES. International Journal American Journal of Modern World Sciences, 2(7), 59-67.

Najmiddinova, M. N. (2025, October). NEW INTERPRETATIONS OF THE TRANSLATION METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 7, pp. 112-116).

Fayzullayeva, M. B. (2023). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI. Экономика и социум, (6-2 (109)), 131-134.

Файзуллаева, М. (2023). Лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери в произведениях Уткира Хашимова. Общество и инновации, 4(9), 295-298.

Fayzullayeva, M. B., Sattarova, I. B., & Makhmudova, M. A. (2021). The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1632-1637.

Akbaralievich, L. A. (2025). THE INFLUENCE OF ENGLISH LOANWORDS ON THE MODERN UZBEK LANGUAGE. SHOKH LIBRARY, 1(12).

Akbaralievich, L. A. (2023). CONTINUOUS PHASE AND MEANS OF USE IN UZBEK LANGUAGE. MATERIALLAR TO'PLAMI, 390.

Latipov, A. A. (2023). FINAL PHASE "TO STOP" AND THEIR EXPRESSIONS IN UZBEK LANGUAGE. Экономика и социум, (11 (114)-1), 192-195.

Ибадуллаев, Ф. (2024). Сравнительный анализ образовательных систем Финляндии и Узбекистана. Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов, 1(1), 97-99.

Ибадуллаев, Ф. Ф. (2016). Несколько записей о формировании текста. Ученый XXI века, (4-4 (17)), 46-48.

Yuldasheva, S. (2020). Importance of using various pedagogical technologies in lessons. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19), 1(04), 126-128.

Yuldasheva, S. T. (2021). Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher. International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology, 9(11).

Муродова, Ф. (2025). The importance of country research project for developing language skills. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 426-428.

JAMALOVA, N. (2020). BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI. Monografia pokonferencyjna science, research, development, 32(2).

JAMALOVA, N. (2022). Pedagogical Conditions for the Development of Individual Characteristics of Students of a Higher Educational Institution.

- Turakhanov, R. (2025). Graphic systems of uzbekistan: historical foundations, contemporary challenges, and future development of alphabets. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 1196-1200.
- Turakhanov, R. (2025). THE CONCEPT OF THE IDEAL HUMAN IN ISLAMIC LITERATURE: A MULTIDISCIPLINARY ANALYSIS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(3), 807-810.
- Васильченко, Л. А. (2024). В Міжнародний форум експертів із менопаузальної гормональної терапії.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ИЗМЕНЕНИЕ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТРИМЕСТРА БЕРЕМЕННОСТИ. *Confrencea*, 1(1), 198-200.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ОСОБЕННОСТИ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ. *Confrencea*, 1(1), 204-205.
- Ахмедова, А. Т., Султонова, М., & Омонова, М. (2024). СОМАТИЧЕСКАЯ КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ ПЕРВОЙ БЕРЕМЕННОСТИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 4(1-2), 60-67.
- Тлегенов, М. Т. (2021). ПОПУЛЯЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. *ББК 1 Р76*, 27.
- Тлегенов, М. Т. (2026). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИИ ПЕСЧАНКИ (MERIONES TAMARISCINUS) В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Advances in Science and Environment*, 2(03), 21-24.
- Тлегенов, М. Т., & Утемуратова, Г. Н. (2012). ОЦЕНКА ОБИЛИЯ НАСЕЛЕНИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Аспирант и соискатель*, (6), 66-68.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). CLINICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE DISORDERS AND THYROID GLAND HORMONES IN HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 506-511.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). STRUCTURE OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 512-518.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 526-532.
- Муминова, Н. А. (2014). Формирование гармонично развитой личности как цель воспитания в современном демократическом обществе. *Молодой ученый*, (9), 502-505.
- Djabbarov, X. D., & Muminova, N. A. (2021). Роль лексико-семантических средств в интерпретации антропонима тарагай и топонима тарагай. *Theoretical & Applied Science*, (1), 406-411.
- Madina, S. (2026). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE LEXICON RELATED TO INTERNET ADVERTISING. *SCHOLAR*, 4(1), 108-112.

Language Learning Opportunities With The Help Of Technologies

Uktamova Mokhigul Khamidullo-kizi

Senior Lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

Madumarova Gulsanamxon,

student of group 24.111

Abstract

This article analyzes the role and prospects of modern digital technologies in the acquisition of foreign languages. The study highlights the theoretical views of scientists who have contributed to the development of the field, as well as the practical significance of artificial intelligence, mobile applications and multimedia tools in education.

Keywords: Digital technologies, artificial intelligence, language learning, cognitive approach, mobile applications, multimedia, linguistic environment, innovation.

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning xorijiy tillarni o'zlashtirishdagi o'rni va istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda soha rivojiga hissa qo'shgan olimlarning nazariy qarashlari hamda sun'iy intellekt, mobil ilovalar va multimedia vositalarining ta'limdagi amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, til o'rganish, kognitiv yondashuv, mobil ilovalar, multimedia, lisoniy muhit, innovatsiya.

Zamonaviy globallashtirish va axborotlashgan jamiyat sharoitida xorijiy tillarni bilish nafaqat shaxsiy imkoniyat, balki professional raqobatbardoshlikning asosiy mezoniga aylandi. An'anaviy ta'lim metodlari uzoq yillar davomida grammatik qoidalarni yodlash va matnlarni tarjima qilishga tayangan bo'lsa, bugungi kunda texnologik inqilob bu yondashuvni tubdan transformatsiyaga uchratdi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamli texnologiyalar til o'rganishni sinf xonalaridan mobil qurilmalarga, statik darsliklardan dinamik multimedia muhitiga ko'chirdi.

Til o'rganishda texnologiyalardan foydalanish shunchaki qulaylik yaratish emas, balki kognitiv jarayonlarni jadallashtirish va lisoniy to'siqlarni bartaraf etishning samarali yo'lidir. Kirish qismida ta'kidlash lozimki, zamonaviy metodikalar o'quvchiga o'zlashtirish tezligini shaxsiylashtirish, real vaqt rejimida qayta aloqa (feedback) olish va dunyoning istalgan nuqtasidagi ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkonini bermogda.

Ushbu sohaning nazariy va amaliy asosi shakllanishida ham o'zbek, ham jahon olimlarining xizmatlari beqiyosdir. Birinchidan, o'zbek kibernetika maktabining asoschisi akademik Vosil Qobulov kompyuter lingvistikasining algoritmlash tizimini yaratish orqali tildagi ma'lumotlarni raqamli qayta ishlashning poydevorini qo'ydi. Uning izlanishlari bugungi avtomatik tarjima va lingvistik tahlil dasturlari uchun nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, jahon miqyosida tan olingan olim Stiven Krashen o'zining "tushunarli kirish ma'lumoti" (comprehensible input) nazariyasi bilan texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslarini belgilab berdi. Krashenning fikricha, til o'rganish bosim ostida emas, balki tabiiy va tushunarli kontent (video, audio, interaktiv o'yinlar) orqali amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, Sugata Mitra "Teshikdagi kompyuter" loyihasi bilan bolalarning texnik vositalar yordamida ustozsiz til o'rganish qobiliyatini, Mark Prensky esa "raqamli tubjoylar" avlodi uchun texnologiya asosiy ta'lim quroli ekanligini ilmiy isbotladi.

Uchinchidan, bugungi texnologik imkoniyatlar bir necha platformalarda namoyon bo'lmoqda. Sun'iy intellekt va chatbotlar o'quvchi uchun istalgan vaqtda muloqot qiluvchi virtual suhbatdosh vazifasini bajarib, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirmogda. Mobil ilovalar gamifikatsiya usuli orqali lug'at boyligini oshirishni qiziqarli mashg'ulotga aylantirdi. Virtual

borliq (VR) texnologiyalari esa o'quvchini sun'iy yaratilgan lisoniy muhitga olib kirib, psixologik to'siqlarni yengishga yordam bermoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, texnologiyalar yordamida til o'rganish — bu kelajak ta'limining asosiy modelidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Vosil Qobulov va Stiven Krashen kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bugungi raqamli platformalar uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Texnologiya tilni tabiiy va tizimli o'zlashtirishning eng samarali mexanizmi ekanligi bugun o'z isbotini topdi.

Bundan tashqari, zamonaviy metodikalar til o'rganuvchiga individual yondashuvni taklif etib, o'z xatolari ustida mustaqil ishlash imkonini yaratdi. Bu jarayonda o'qituvchining roli ham transformatsiya bo'lib, u shunchaki ma'lumot beruvchidan raqamli dunyoda to'g'ri yo'nalish ko'rsatuvchi fasilitatorga aylandi. Umuman olganda, texnologik imkoniyatlardan unumli foydalanish nafaqat til o'rganish muddatini qisqartiradi, balki insonning global axborot makoniga integratsiyalashuvini va intellektual salohiyatini oshirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Qobulov V. K. Algoritmshning fundamental asoslari. – Toshkent: Fan, 1991. – 230 b.
- Shavkatovna, S. D., Karimovna, I. M., & O'ktamovna, X. M. (2021). Linguocultural features of the symbols. *Elementary Education Online*, 20(4), 2993-2993.
- Khusenova, M. U. (2024). Lexical-Semantic Features of Astronomical Terminology in the English Language. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 2(11), 279-282.
- Shavkatovna, S. D., & G'ulomovna, Q. M. (2021). Linguocultural Features of Symbol and Metaphor. *International Journal on Integrated Education*, 4(10), 172-176.
- Saidov, S. (2024). Linguo-cultural studies and corpus linguistics: interdisciplinarity. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 18.
Bu yerda urg'u "kitobni" ga tushadi yoki uslubiy/emotsional ta'kid paydo bo'ladi.

O'zbek tiliga xos bo'lgan asosiy so'z tartibi modeli ega+ to'ldiruvchi+ hol+ kesim shaklida namoyon bo'ladi. Bu modelda kesim odatda, gap oxirida kelib, harakat yoki holatning yakuniy ma'nosini ifodalaydi beradi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda A.G'ulomovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" ¹asarida ko'rish mumkin. Unda, o'zbek tilidagi gap tuzilishini tahlil qilib, kesimning gap oxirida kelishini tilning tipologik xususiyati ekanligini qayd etadi.

¹ A.G'ulomov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis"- Toshkent, Fan- 2010. 192 b

Shavkat Shoabdurahmonov o'zbek tilshunosligida sintaksis, ayniqsa gap tuzilishi va so'z tartibi masalalarini o'rgangan yirik olimlardan biridir. U bu mavzuni asosan Hozirgi o'zbek adabiy tili darsligida yoritgan bo'lib, ushbu asarda o'zbek tilining sintaktik qurilishi, gap bo'laklarining o'zni va so'z tartibi ilmiy asosda bayon qilingan. Olim o'zbek tilida odatiy gap tartibi ya'ni *ega + ikkinchi darajali bo'laklar + kesim (подлежащее + второстепенные члены предложения + сказуемое, subject + secondary parts of the sentence + predicate)* ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, so'z tartibi o'zgarishi mantiqiy urg'u va uslubiy maqsadga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ingliz tilshunosligida esa O.Jespersen, R. Quirk kabi olimlar gap tartibini qat'iy grammatik me'yor sifatida talqin qiladilar.

Wilhelm von Humboldt ning so'z tartibi yoki umumiy til tuzilishiga oid eng taniqli asari — "On Language Diversity of Human Language Construction and its Influence on the Mental Development of the Human Species" (Inson tilining tuzilishidagi xilma-xillik va uning insoniyatning aqliy rivojlanishiga ta'siri haqida, 1839). Bu asar til tuzilishi, shu jumladan so'z tartibi va tilning fikr shakllanishiga ta'sirini falsafiy va lingvistik nuqtai nazardan yoritadi.

O.Jespersen sintaksis va so'z tartibi masalalarini chuqur o'rgangan olimlardan biridir. Uning "The Philosophy of Grammar" ("Grammatika falsafasi", 1924.) hamda "Essentials of English grammar" ("Ingliz tili grammatikasining asoslari", 1933.) asarlarida ingliz tilidagi qat'iy gap tartibi fikrning aniq va ravshan ifodalanishida muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi.

J.Greenburg gap tartibi tipologiyasini ilmiy asosda o'rgangan olimlardan biridir asosiy asari "Grammatikaning umumiy qonuniyatlari so'z tartibi kontekstida" ("Some universals of Grammar with particular reference to the order of meaningful elements", 1963)²da dunyo tillarini o'rganib, gap tartibi universallarini aniqlagan va ularni quyidagicha tasniflangan:

Subject – verb- object (SVO), Subject- object- verb(SOV).

J.Hawkins gap tartibi universallari va ularning til tarixidagi o'zgarishini chuqur o'rgangan olim sifatida gap tartibi universallarini kengaytirgan, til tipologiyasini rivojlantirgan. "So'z tartibi universallari" ("Word order universals" 1983.) kitobida Hawkins 350 dan ortiq tilni tahlil qilib, gap tartibi va tilning evolyutsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirgan.

M.Dryer zamonaviy tipologiyada gap tartibini keng miqyosda o'rgangan mashhur tilshunos "Greynbergcha so'z tartibi korrelyatsiyalari" ("The Greenbergian word order correlations" 1992-yilda nashr etilgan.), "Til tuzilmalari jahon atlas" ("Word Atlas of language structures" 2005-yilda nashr etilgan) asarlarida gap tartibi korrelyatsiyasini o'rgangan va til tipologiyasiga katta hissa qo'shgan.

B.Komri til universally va tipologiyasi bo'yicha mashhur olim o'zining "Language universals and linguistic typology" ("Til universallari va lingvistik tipologiya", 1963.) kitobida til universally va gap tartibi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, gap tartibi tilning sintaktik tuzilishini belgilovchi asosiy vosita bo'lib, har bir tilning mantiqiy va kommunikativ xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Birinchi, O'zbek tili va Ingliz tilini o'rganuvchi olimlar, jumladan Azim Hojiyev va G'ani Abdurahmonov kabi o'zbek tilshunoslari, O'zbek tilining SOV asosiy gap tartibini, fe'lining gap oxirida kelishini va so'zlar joylashuvining pragmatik erkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa O'zbek tilining sintaktik tabiatini tushunishda muhim poydevor yaratadi.

Ikkinchi, rus va ingliz tilshunoslari, xususan Viktor Vinogradov va Jeyms Hurford, gap tartibini universal sintaktik printsiplar bilan solishtirish orqali til tipologiyasini tushunishga yordam beradi. Ingliz tilidagi qat'iy SVO tartibi va O'zbek tilidagi SOV tartibining erkinligi gap ma'nosi va pragmatik niyatni aks ettirishdagi farqlarni ko'rsatadi.

Umuman olganda, gap tartibini qiyosiy tahlil qilish O'zbek va Ingliz tillaridagi sintaksis xususiyatlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi, tarjima, til o'qitish va lingvistik tadqiqotlarda muhim amaliy natijalarni beradi. Kelajakda ushbu sohani kognitiv tilshunoslik va

² J.Greenburg -"Some universals of Grammar with particular reference to the order of meaningful elements" Cambridge, Massachusetts 1963. 41b

neyrolingvistika nuqtai nazaridan o'rganish tilshunoslikning jahon maydonidagi rivojiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Greenberg, J. H. (1963). Language Universals and Linguistic Typology.
- Kendjaeva, G. F. (2020). The methods of translating phraseological units in the Russian and English translations of the novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. ISJ Theoretical & Applied Science, 9(89), 316-321.
- KENJAYEVA, G. (2021). INTERPRETATION OF HOUSEHOLD REALITIES IN TRANSLATIONS OF A. KADIRI'S NOVEL" DAYS GONE BY. In E-Conference Globe (pp. 323-227).
- Кенджаева, Г. Ф. (2021). МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В РОМАНЕ А. КАДЫРИ «МИНУВЩИЕ ДНИ». МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-2).
- Fattilloevna, K. G. (2021). Methods of Rendering Realias in the Translations of the Novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. JournalNX, 7(09), 166-171.
- Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
- Nurullayevna, S. N., & Nuriddinovna, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 269.
- Salikhova, N. N. (2018). MACRO CLASSROOM MANAGEMENT WITH SHORTAGE OF BOOKS. Теория и практика современной науки, (3 (33)), 63-65.
- Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). Methods Of Cognitive-Behavioral Psychotherapy In The Treatment Of Rheumatoid Arthritis. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1-2), 701-706.
- Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Та'sirlangan ichak sindromida nevroitik buzilishlarni differensial taxlili va tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish (Doctoral dissertation).
- Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). Depressive-anxiety disorders in patients with rheumatoid arthritis and methods of their psychocorrection. Interpretation and researches, 2(3), 9-16.
- АНАМИЯТИ, D., & Махаматжанова, N. M. FS Mirxaydarova. SM Mirxaydarova Академические исследования в современной науке, 2(7), 19-20.
- Намраев, B., & Махаматжанова, N. (2023). Modern methods of treatment of sexual disorders. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(15), 73-74.
- Gafurova, S. S., Sharodiya, D., & Alimuhamedova, S. J. (2025). TO IDENTIFY ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND STUDY THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE BEHAVIORAL THERAPY IN THEM.
- Xamdamovna, I. M. (2025). TA'LIM JARAYONIDA O'YIN ASOSIDAGI METODLARNING NAZARIY ASOSLARI. IZLANUVCHI, 1(6), 312-327.
- Xamdamovna, I. M. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF ASINDETONE SPECIES IN ENGLISH AND UZBEK. Scientific progress, 3(3), 397-400.
- Xamdamovna, I. M. (2025). HÖRVERSTÄNDNIS UND LESEN IN ENGLISCH PSYCHOLINGUISTISCHE KLASSIFIZIERUNG VON ÜBUNGEN FÜR SPRACHAKTIVITÄTEN. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(4), 103-107.
- ULUGBEKOVNA, R. S. (2020). The First Period of Washington Irving's.
- Нурмухаметова, С., & Расулова, С. (2022). The influence of Samuel Taylor Coleridge as a poet, critic and philosopher to english literature. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 39-40.

- Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей АИ Куприна 1890-1910 годах. *Namkor konferensiyalar*, 1(2), 502-504.
- Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов Александра Куприна. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 2), 172-174. qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). THE ROLE OF PRAGMATICS FOR LEARNING ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Modern Scientific Research*, 3(7), 51-56.
- qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF CONCEPTS IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES. *International Journal American Journal of Modern World Sciences*, 2(7), 59-67.
- Najmiddinova, M. N. (2025, October). NEW INTERPRETATIONS OF THE TRANSLATION METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 7, pp. 112-116).
- Fayzullayeva, M. B. (2023). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI. *Экономика и социум*, (6-2 (109)), 131-134.
- Файзуллаева, М. (2023). Лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери в произведениях Уткира Хашимова. *Общество и инновации*, 4(9), 295-298.
- Fayzullayeva, M. B., Sattarova, I. B., & Makhmudova, M. A. (2021). The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1632-1637.
- Akbaralievich, L. A. (2025). THE INFLUENCE OF ENGLISH LOANWORDS ON THE MODERN UZBEK LANGUAGE. *SHOKH LIBRARY*, 1(12).
- Akbaralievich, L. A. (2023). CONTINUOUS PHASE AND MEANS OF USE IN UZBEK LANGUAGE. *MATERIALLAR TO'PLAMI*, 390.
- Latipov, A. A. (2023). FINAL PHASE "TO STOP" AND THEIR EXPRESSIONS IN UZBEK LANGUAGE. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 192-195.
- Ибадуллаев, Ф. (2024). Сравнительный анализ образовательных систем Финляндии и Узбекистана. *Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов*, 1(1), 97-99.
- Ибадуллаев, Ф. Ф. (2016). Несколько записей о формировании текста. *Ученый XXI века*, (4-4 (17)), 46-48.
- Yuldasheva, S. (2020). Importance of using various pedagogical technologies in lessons. *Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19)*, 1(04), 126-128.
- Yuldasheva, S. T. (2021). Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher. *International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology*, 9(11).
- Муродова, Ф. (2025). The importance of country research project for developing language skills. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, 1(1), 426-428.
- JAMALOVA, N. (2020). BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 32(2).
- JAMALOVA, N. (2022). Pedagogical Conditions for the Development of Individual Characteristics of Students of a Higher Educational Institution.
- Turakhanov, R. (2025). Graphic systems of uzbekistan: historical foundations, contemporary challenges, and future development of alphabets. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 1196-1200.
- Turakhanov, R. (2025). THE CONCEPT OF THE IDEAL HUMAN IN ISLAMIC LITERATURE: A MULTIDISCIPLINARY ANALYSIS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(3), 807-810.

- Васильченко, Л. А. (2024). V Міжнародний форум експертів із менопаузальної гормональної терапії.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ИЗМЕНЕНИЕ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТРИМЕСТРА БЕРЕМЕННОСТИ. *Confrencea*, 1(1), 198-200.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ОСОБЕННОСТИ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ. *Confrencea*, 1(1), 204-205.
- Ахмедова, А. Т., Султонова, М., & Омонова, М. (2024). СОМАТИЧЕСКАЯ КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ ПЕРВОЙ БЕРЕМЕННОСТИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 4(1-2), 60-67.
- Тлегенов, М. Т. (2021). ПОПУЛЯЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. ББК 1 Р76, 27.
- Тлегенов, М. Т. (2026). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИИ ПЕСЧАНКИ (MERIONES TAMARISCINUS) В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Advances in Science and Environment*, 2(03), 21-24.
- Тлегенов, М. Т., & Утемуратова, Г. Н. (2012). ОЦЕНКА ОБИЛИЯ НАСЕЛЕНИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Аспирант и соискатель*, (6), 66-68.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). CLINICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE DISORDERS AND THYROID GLAND HORMONES IN HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 506-511.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). STRUCTURE OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 512-518.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 526-532.
- Муминова, Н. А. (2014). Формирование гармонично развитой личности как цель воспитания в современном демократическом обществе. *Молодой ученый*, (9), 502-505.
- Djabbarov, X. D., & Muminova, N. A. (2021). Роль лексико-семантических средств в интерпретации антропонима тарагай и топонима тарагай. *Theoretical & Applied Science*, (1), 406-411.
- Madina, S. (2026). LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE LEXICON RELATED TO INTERNET ADVERTISING. *SCHOLAR*, 4(1), 108-112.
- Jespersen, O. (1924). *The Philosophy of Grammar*.
- Jespersen, O. (1933). *Essentials of English Grammar*.

Comparative Analysis Of The Plural Form Of Nouns In Uzbekistan And English

Uktamova Mokhigul Khamidullo-kizi

Senior Lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

Muhammadova Oydinoy,

Student of the Department of Philology and Language Teaching: English,
Fergana State University

Annotation

This article analyzes the expression of the plural category in nouns in Uzbek and English. In the course of the research, the role of the plural category in the grammatical system of both languages and its significance in linguistics are highlighted. Also, the general principles of the formation of plural forms of nouns, their grammatical features and use in the speech process are studied on a scientific basis. The article identifies interlingual similarities and differences through the method of comparative analysis, and shows their theoretical and practical significance. The results of the study serve to enrich scientific views in the field of comparative grammar and provide theoretical and practical information that can be used in constructive linguistics and translation practice.

Keywords: plural category, number category, morphology, singular and plural, morphological and semantic plural, regular and irregular plural, acquired plural forms.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida otlardagi ko'plik kategoriyasining ifodalanishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida har ikki tilning grammatik tizimida ko'plik kategoriyasining tutgan o'rnini va uning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, otlarning ko'plik shakllarini hosil qilishga oid umumiy tamoyillar, ularning grammatik xususiyatlari hamda nutq jarayonidagi qo'llanishi ilmiy asosda o'rganiladi. Maqolada qiyosiy tahlil usuli orqali tillararo o'xshash va farqli jihatlar aniqlanib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy grammatika sohasidagi ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi hamda konstruktiv lingvistika va tarjima amaliyotida qo'llanishi mumkin bo'lgan nazariy va amaliy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: ko'plik kategoriyasi, son kategoriyasi, morfologiya, birlik va ko'plik, morfologik va semantik ko'plik, muntazam va nomuntazam ko'plik, o'zlashgan ko'plik shakllari.

Zamonaviy tilshunoslikda grammatik kategoriyalarni qiyosiy jihatdan o'rganish tillarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday asosiy grammatik kategoriyalardan biri otlarga xos bo'lgan ko'plik kategoriyasi bo'lib, u miqdoriy munosabatlarni ifodalash bilan birga til tizimining semantik va strukturaviy jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'plik kategoriyasi morfologiya va grammatika doirasida ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu kategoriya faqat shakliy hodisa sifatida emas, balki semantik va funksional omillar bilan bog'liq murakkab grammatik birlik sifatida talqin qilinadi. Otlardagi ko'plik kategoriyasi bo'yicha qiyosiy grammatika nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlar esa bu masalada tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash orqali umumiy lingvistik qonuniyatlarni yoritishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida otlardagi ko'plik kategoriyasi muhim grammatik kategoriya sifatida bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. A.G'ulomov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Nurmonov, G'.Abdurahmonov hamda E.Begmatov¹ o'z ilmiy ishlarida o'zbek tili grammatik tizimi, xususan otlarning son kategoriyasi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlarida mazkur kategoriyaning nazariy asoslari, grammatik xususiyatlari va til tizimidagi

¹ G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1957; Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980; Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2001; Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1974; Begmatov E. O'zbek tili morfologiyasi va so'z yasalishi. – Toshkent: Universitet, 1995.

o'zni haqida muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Ushbu olimlarning fikr-mulohazalari o'zbek tilida ko'plik kategoriyasini ilmiy jihatdan o'rganish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va quyida ularning qarashlari asosida mazkur masala batafsil tahlil qilinadi.

Ingliz tilshunosligida ham otlardagi ko'plik kategoriyasi grammatik tizimning muhim kategoriyasi sifatida olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, R.Kvirk, R.Hadlston, G.Pullam, O.Yespersen, L.Blumfeld hamda B.Komri² o'z tadqiqotlarida ingliz tilining grammatik qurilishi, xususan otlarning son kategoriyasi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratganlar. Rus tilshunosligidagi V.Vinogradov va L.Sherba³ tadqiqotlarida mazkur kategoriyaning grammatik tabiati, til tizimidagi o'zni va nazariy asoslari haqida muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

A.G'ulomov⁴ o'zbek tilida otlarning ko'plik shaklini asosan grammatik va ma'no jihatdan o'rganib, ularni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Morfologik ko'plik
2. Semantik ko'plik
3. Ko'plik ma'nosining kontekst orqali ifodalanishi
4. Hurmat ma'nosini bildiruvchi

Morfologik ko'plik o'zbek tilida ko'plik ma'nosining maxsus grammatik ko'rsatkich, ya'ni –lar affiksi yordamida ifodalanishidir. Bu ko'plikning eng asosiy va mahsuldor turi hisoblanadi. Masalan, *kitob – kitoblar, talaba – talabalar, daraxt – daraxtlar* shakllarida ko'plik ma'nosi aniq morfologik vosita orqali ifodalanadi va predmetning miqdor jihatdan bittadan ortiq ekanligini bildiradi. Bunday holatda –lar affiksi grammatik kategoriya ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi va otning son jihatdan o'zgarishini ta'minlaydi.

Semantik ko'plikda esa ko'plik ma'nosi maxsus qo'shimcha orqali emas, balki so'zning o'z leksik ma'nosi orqali ifodalanadi. Bunday otlar shaklan birlikda bo'lsa ham, mazmunan jamlikni anglatadi. Masalan, *xalq, el, olomon, yoshlar* kabi birliklar bir guruh shaxs yoki predmetlar yig'indisini bildiradi. see Bu yerda grammatik shakl emas, balki semantik mazmun asosiy rol o'ynaydi.

Ko'plik ma'nosining kontekst orqali ifodalanishida grammatik qo'shimcha ishlatilmasligi mumkin, biroq gap mazmuni, son bildiruvchi so'zlar yoki aniqlovchilar yordamida ko'plik anglashiladi. Masalan, *uch talaba keldi, ko'p odam yig'ildi* jumllarida *talaba* va *odam* so'zlari birlik shaklida bo'lsa ham, kontekst orqali ularning ko'plik ma'nosi aniqlanadi. Bu turda sintaktik va semantik omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Hurmat ma'nosini bildiruvchi ko'plik holatida –lar affiksi haqiqiy miqdoriy ko'plikni emas, balki ehtirom va hurmat ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *otamlar keldilar, ustozlar aytdilar* kabi gaplarda aslida bir shaxs nazarda tutiladi, biroq hurmat yuzasidan ko'plik shakli qo'llanadi. Bu hodisa ko'plik kategoriyasining nafaqat grammatik, balki uslubiy va pragmatik xususiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

R.Kvirk⁵ o'zining "Ingliz tilining keng qamrovli grammatikasi" (A comprehensive Grammar of the English language, 1985) kitobi asosida ingliz tilida ko'plik shakllarini morfologik va semantik xususiyatlariga ko'ra batafsil tasniflaydi. R.Kvirk ingliz tilidagi otlarning ko'plik shaklini quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Muntazam ko'plik (Regular plurals)
2. Nomuntazam ko'plik (Irregular plurals)
3. Nol ko'plik (Zero plural)
4. O'zlashgan ko'plik shakllari (Foreign plurals)
5. Faqat ko'plik shaklida ishlatiladigan otlar (plural-only nouns)
6. Faqat birlik shaklidagi otlar (Singular-only nouns)

² Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985; Huddleston R., Pullum G. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002; Jespersen O. Modern English Grammar on Historical Principles. – London: Allen & Unwin, 1909–1949; Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933; Comrie B. Number. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

³ Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – Москва: Высшая школа, 1947; Щерба Л.В. О частях речи в русском языке. – Ленинград: Наука, 1957.

⁴ G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1957.

⁵ Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London: Longman, 1985.

Muntazam ko'plik ingliz tilida eng keng tarqalgan shakl bo'lib, o'ning birlik shakliga –s yoki –es qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu ingliz tilida ko'plikning asosiy grammatik ko'rsatkichi hisoblanadi. Masalan, *book – books, student – students, box – boxes* shakllarida qo'shimcha aniq morfologik vosita sifatida xizmat qiladi va grammatik ma'noni ochiq ifodalaydi. Bunday holatda ko'plik formal ko'rsatkich orqali belgilanadi va tizimli xarakterga ega bo'ladi.

Nomuntazam ko'plik (Irregular plurals) shaklida esa otlar –s qo'shimchasini olmaydi, balki ichki tovush o'zgarishi yoki maxsus tarixiy shakl orqali hosil qilinadi. Masalan, *man – men, woman – women, child – children, foot – feet* kabi birlik va ko'plik shakllari o'rtasida fonetik o'zgarish kuzatiladi. Bu turdagi shakllar ingliz tilining tarixiy rivojlanishi natijasida saqlanib qolgan bo'lib, ular muntazam qoida asosida emas, balki an'anaviy shaklda qo'llanadi.

Nol ko'plik (Zero plural) holatida o'ning birlik va ko'plik shakli bir xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni maxsus qo'shimcha qo'shilmaydi. Masalan, *sheep – sheep, deer – deer, fish – fish* shakllarida grammatik forma o'zgarmaydi. Ko'plik ma'nosi esa gap tarkibidagi boshqa birliklar yoki umumiy kontekst orqali aniqlanadi. Bu yerda morfologik emas, balki semantik va sintaktik omillar muhim rol o'ynaydi.

O'zlashgan ko'plik shakllari (Foreign plurals) boshqa tillardan, ayniqsa lotin va yunon tillaridan kirib kelgan otlarning asl ko'plik shaklini saqlab qolgan variantlarini o'z ichiga oladi. Masalan, *phenomenon – phenomena, criterion – criteria, datum – data* shakllari ilmiy va rasmiy nutqda keng qo'llanadi. Bu shakllar ingliz tilidagi ko'plik tizimining tarixiy va leksik boyligini aks ettiradi. Faqat ko'plik shaklida ishlatiladigan otlar (Plural-only nouns) grammatik jihatdan doimo ko'plik hisoblanadi va birlik shakliga ega emas. Masalan, *scissors, trousers, clothes* kabi otlar ko'plikdagi fe'l bilan qo'llanadi va predmetning juftlik yoki tarkibiy tuzilishini bildiradi.

Faqat birlik shaklidagi otlar (Singular-only nouns) esa odatda sanalmaydigan otlar bo'lib, ko'plik qo'shimchasini olmaydi. Masalan, *information, advice, furniture* kabi birliklar grammatik jihatdan birlik hisoblanadi va birlikdagi fe'l bilan birikadi. Bu turdagi otlarda ko'plik ma'nosi zarur bo'lsa, qo'shimcha birliklar yoki miqdor bildiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi.

O'zbek va ingliz tillarida otlarning ko'plik kategoriyasi grammatik tizimning muhim qismi bo'lib, predmetlarning miqdorini ifodalash bilan birga tilning morfologik, semantik va funksional xususiyatlarini namoyon etadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ko'plik mavjud bo'lsa-da, uni ifodalash usullari va qo'llanishi turlicha.

O'zbek tilida ko'plikning eng mahsuldor shakli – *-lar* affiksi: kitoblar, talaba – talabalar, ingliz tilida esa *-s* yoki *-es* qo'shimchalari: *books, students, boxes* ishlatiladi. Nomuntazam shakllar har ikkala tilda mavjud: ingliz tilida fonetik o'zgarish orqali (*man – men*), o'zbek tilida esa semantik ko'plik shakllari (*xalq, el, olomon*).

Shuningdek, ko'plik ba'zan kontekst orqali ifodalanadi (*uch talaba keldi, three students arrived*). O'zbek tilida *-lar* affiksi hurmat ma'nosini ham bildiradi (*otamlar, ustozlar*), ingliz tilida esa bunday grammatik xususiyat yo'q. Ingliz tilida faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar (*scissors, trousers*) va faqat birlik shaklida ishlatiladigan sanalmaydigan otlar (*information, advice*) mavjud. O'zbek tilida bunday cheklolvar kamroq.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ko'plik tizimi muntazam va affiks orqali ifodalanadi, ingliz tilida esa morfologik va tarixiy shakllar aralashmasi mavjud. O'zbek tilida ko'plikning pragmatik va uslubiy funksiyasi ham muhim, ingliz tilida esa ko'plik faqat miqdoriy ma'noni bildiradi.

Natijada, har ikkala til ko'plik kategoriyasini ifodalashga ega bo'lsa-da, morfologik shakllar, semantik xususiyatlar va funksional qo'llanishi jihatdan farqlanadi. Bu qiyosiy tahlil tillarning struktural xususiyatlarini chuqurroq tushunishga va amaliy jihatdan tarjima, til o'qitish hamda lingvistik tadqiqotlarda qo'llashga imkon beradi.

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida otlarning ko'plik kategoriyasini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ko'plik grammatik tizimning muhim elementi bo'lib, predmetlarning miqdoriy munosabatini ifodalaydi, ammo morfologik shakllar, semantik xususiyatlar va funksional qo'llanish jihatidan farqlanadi.

O'zbek tilida ko'plikning asosiy vositasi – *-lar* affiksi bo'lib, u morfologik va semantik jihatdan aniq ma'no beradi va ba'zan hurmat/pragmatik vazifani ham ifodalaydi. Ingliz tilida esa ko'plik muntazam (*-s/-es*), nomuntazam (fonetik o'zgarish yoki tarixiy shakllar), nol ko'plik, o'zlashgan ko'plik shakllari, faqat ko'plik yoki faqat birlik shaklida ishlatiladigan otlar kabi turli usullar orqali hosil qilinadi. Bu farqlar ingliz tilining tarixiy rivojlanishi va leksik boyligi bilan bog'liq.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ko'plik kategoriyasi nafaqat morfologik vosita sifatida, balki semantik va funksional jihatdan ham tilning struktural tizimida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy grammatika sohasidagi nazariy bilimlarni boyitadi, konstruktiv lingvistika va tarjima amaliyotida qo'llanishi mumkin bo'lgan ilmiy asos yaratadi.

Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida ko'plik kategoriyasining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash tilshunoslikda umumiy va tilga xos qonuniyatlarni tushunishga yordam beradi hamda lingvistik tadqiqotlar, til o'qitish va tarjimada amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

REFERENCES

- Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
- Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik asoslari. – Toshkent: Fan, 1985.
- Khodjaeva, D. I., & Mustafoyeva, P. U. (2020). Position and combination of sounds in speech. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 182.
- Xodjayeva, D. I., Abulova, Z. A., Ochilova, N. M., & Sodiqova, G. D. (2020). TRAINING PROBLEM IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING, CONTINUATION IN THEIR TYPOLOGY AND EXERCISE. *Theoretical & Applied Science*, (6), 158-161.
- KHODJAYEVA, D., & SAIDOVA, Z. (2021). THE ORIGIN AND JUSTIFICATION OF THE TERM TAXIS IN LINGUISTICS. In *E-Conference Globe* (pp. 375-379).
- Kurbanova, N. (2017). Efficient ways in teaching writing in ESL classes. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 21.
- Kurbanova, N. (2017). New techniques in teaching idioms for EFL learners. *Интернаука*, 7(11 Часть 3), 19.
- Kurbanova, N. (2018). Speaking activities as a main tool for developing self-confidence. *Интернаука*, (9), 25-27.
- Raxmatulloevna, K. R., & Oktamovna, O. M. (2022). The Distinctive Writing Style of Arthur Conan Doyle. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 197-201.
- Rakhmatulloevna, K. R. (2016). Uzbek national cuisine ethnographisms in English translations. *UCT Journal of Social Sciences and Humanities Research*, 4(2), 20-25.
- Kasimova, R. R. (2022). Comparative study of a Writer's and Translator's Psychology in the English translation of "Kecha va Kunduz". VI. *Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyum*. Moldova, 13-15.
- Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2019). COMPARISON OF CEREMONIES AND LEGENDS ASSOCIATED WITH THE BELIEF IN REVERENCE FOR WATER. *Theoretical & Applied Science*, (6), 120-124.
- Jalilova, L. (2020). National Specificity of American Satirical Short Stories. *Philology Matters*, 2020(2).
- Жалилова, Л. Ж. (2018). СПЕЦИФИКА АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА. Теория и практика современной науки, (3 (33)), 198-203.
- Жалилова, Л. Ж. (2016). Сатира А. Бирса в свете фольклорных и литературных традиций. На пересечении языков и культур. Актуальные вопросы гуманитарного знания, (1), 295-299.
- Urayeva, D., & Nazarova, G. (2021). COMPARATIVE ANALYSIS OF MYTHOLOGICAL NAMES AND MYTHOLOGISMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LITERATURE. *Philology Matters*, 2021(1), 3-21.

- Nazarova, G. P., Umurova, K. H., & Kasimova, N. F. (2020). Peculiarities of the mythological images of the British folklore. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8 Special Issue), 1614-1618.
- Kobilova, N. S., & Nazarova, G. P. (2016). Elaborated methods in the light of writing. *International scientific journal*, (4 (2)), 34-36.
- Nazarova, G. P. (2019). Women mythological characters in British and Uzbek literature. *Экономика и социум*, (2 (57)), 14-17.
- Khajieva, F. M. (2021). The rise and development of the american biographical novel. *JournalNX*, 7(06), 262-267.
- Melsovna, K. F. (2021). Cosmopolitanism through intertextual devices in the postmodern biographical novel. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 156-161.
- Kholikova, N. N. (2019). Translation and its studies (according to JH Chase's Uzbek translated works). *Theoretical & Applied Science*, (10), 652-655.
- Safarova, Z. (2022). Реалистичное художественное изображение жизни сирот в романе Диккенса "Оливер Твист". *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ(buxdu. Uz)*, 13, 13.
- Safarova, Z. (2020). Analysis of orphan images and orphanhood in children's literature. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 1(1).
- Khayatovna, N. M. UDC: 398.93 English And Uzbek Blessings Which Formed By The Belief Of Magic Words. *Scientific Reports Of Bukhara State University*, 72.
- Niyazova, M. K., & Subkhonova, N. M. (2023). Creation of Robinson Crusoe Novel. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 1(5), 28-31.
- Niyazova, M. K., & Temirova, M. (2023). Semantic analysis of old english phraseological units. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 12(3), 35-39.
- Khayatovna, N. M. (2022). Commonalities of English and Uzbek blessings. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 406-410.
- Kilicheva, M. R. (2023). Interpretation of Dreams In—Jane Eyre And—«Wide Sargasso Sea»ll. *Scientific Reports Of Bukhara State University*, 4, 239-242.
- Kilicheva, M. (2022). Принципы Духовного Анализа В Художественном Результате Одиночества В Английской Поэзии. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 8(8).
- Kilicheva, M. R. (2019). DEPICTION OF HUMAN PSYCHE IN ULUGBEK KHAMDAM'S NOVEL " LONELINESS". *Theoretical & Applied Science*, (12), 678-680.
- Narzullayeva, F. (2021). ВЫРАЖЕНИЕ СЛОВА «ГОЛОВА» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ФРАЗАХ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 3(3).
- Grinev-Griniewicz, S. (2016). Polysemy in language and thought. *Crossroads. A Journal of English Studies*, (01 (12)), 19-30.
- Olimovna, N. F. (2022). Contrastive Analysis of the "Head" in English and Uzbek Languages. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 410.
- Ziyodullaev, A. R. (2024). EPONYMS IN ONOMASTICS: LINGUISTIC, CULTURAL, AND HISTORICAL DIMENSIONS. *AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 2(5), 56-61.
- Ziyodullayev, A. R. (2022). UZBEK EPONYMS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 47-49.
- Kasimova, R. R., Ziyadullayev, A. R., & Ziyadullayeva, A. A. (2019). COMPARISON OF CEREMONIES AND LEGENDS ASSOCIATED WITH THE BELIEF IN REVERENCE FOR WATER. *Theoretical & Applied Science*, (6), 120-124.
- Blumfield L. *Language*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933.
- Comrie B. *Language Universals and Linguistic Typology*. – Chicago: University of Chicago Press, 1989.

Comparative Analysis Of The Number Word Class (On The Example Of Uzbek, Russian And English Languages)

Uktamova Mokhigul Khamidullo-kizi

Senior lecturer, Faculty of Foreign Languages, Fergana State University

Abobakirova Shahrizoda A'zam kizi

Student, Faculty of Foreign Languages, Fergana State University

Annotation

This article is aimed at analyzing the role of the number word class in Uzbek linguistics, its lexical-semantic features and grammatical nature. The study covers the types of meanings of numbers, their formation system and the laws of their connection with other word classes, in particular nouns, in a sentence. Also, the stylistic features of the use of numbers in speech and with numeral words are analyzed using examples.

Keywords: number word class, quantity, order, numeral, morphological sign, syntactic function, conjunction, numeral words, quantitative relations.

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilshunosligida son so'z turkumining o'rni, uning leksik-semantik xususiyatlari va grammatik tabiatini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida sonlarning ma'no turlari, ularning yasaliş tizimi hamda gap ichida boshqa so'z turkumlari, xususan, otlar bilan bog'lanish qonuniyatlari yoritiladi. Shuningdek, sonlarning nutqda otlashishi va numerativ so'zlar bilan qo'llanilishidagi uslubiy o'ziga xosliklar misollar orqali tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: son so'z turkumi, miqdor, tartib, sanoq son, morfologik belgi, sintaktik vazifa, otlashish, numerativ so'zlar, miqdoriy munosabatlar.

Tilshunoslik tizimida son so'z turkumi olamni miqdoriy anglash va narsa-buyumlar o'rtasidagi matematik munosabatlarni lisoniy ifodalashda markaziy o'rinni egallaydi. O'zbek tili grammatikasida sonlar nafaqat miqdor va tartibni bildiradi, balki o'zining boy ma'no turlari hamda yasaliş imkoniyatlari bilan boshqa turkumlardan ajralib turadi. Sonlar narsa-buyumning sanog'ini, donasini, chamalangan miqdorini yoki guruhlanish xususiyatlarini aniq ko'rsatib, nutqimizning aniqligi va mantiqiyiligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu so'z turkumi leksik-semantik jihatdan turg'un bo'lsa-da, uning nutqdagi dinamikasi, ayniqsa, numerativ so'zlar bilan birikishi va otlashish jarayonlari tilshunos olimlar tomonidan doimiy tadqiq etiladigan dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek tili grammatikasining o'ziga xosligi shundaki, sonlar nafaqat matematik miqdorni, balki predmetning sifat darajasini va lisoniy turg'unligini ham belgilab beradi. Masalan, tilda sonlarning boshqa so'z turkumlari, xususan, otlar bilan birikishi natijasida yuzaga keladigan numerativ munosabatlar o'zbek xalqining dunyoqarashi va turmush tarzini aks ettiradi. "*Nafar*", "*tup*", "*nusxa*" kabi birliklar shunchaki sanash vositasi emas, balki sanalayotgan ob'ektning tabiatini aniqlashtiruvchi semantik ko'rsatkichlardir.

Son so'z turkumi jahon va o'zbek tilshunosligida hamisha markaziy tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu turkumning grammatik tabiati va miqdoriy ifoda usullari turli tillarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida son so'z turkumining tasnifi va tahlili G'.Abdurahmonov, A.Hojiyev va H.Ne'matov kabi olimlarning nomi bilan bog'liq. Xususan, A.Hojiyev sonlarning morfologik yasaliş tizimi, ma'no turlari va qo'shimchalari bo'yicha eng aniq ilmiy tasnifni ishlab chiqqan. A. Hojiyev "O'zbek tili morfologiyasi, so'z yasaliş va imlo masalalari" kitobida son so'z turkumining morfologik qurilishi, son yasovchi affikslar va ularning imlo qoidalarini tahlil qilgan. A. Hojiyev sonlarlar predmetning miqdori, sanog'i va tartibini bildiradi, deb ta'kidlaydi.¹ Shunga ko'ra : sonlarni miqdor son, tartib son, taqsim son, kasr son kabi guruhlarga ajratgan.

¹ Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, so'z yasaliş va imlo masalalari. – Toshkent: Fan, 1989. – 120 b.

G'.Abdurahmonov sonlarning qadimgi turkiy bitiktoshlardan boshlab zamonaviy o'zbek tiligacha bo'lgan tarixiy evolyutsiyasini tadqiq etgan. H.Ne'matov sonlarning nutqda otlashishi va ularning gapdagi sintaktik vazifalarini tizimli-strukturaviy metod asosida yoritgan. Bundan tashqari, E.Begmatov sonlarning numerativ so'zlar (nafar, bosh, tup) bilan birikib kelishining semantik va uslubiy xususiyatlarini leksikologik jihatdan tahlil qilgan. Sh. Shukurov esa o'zbek tili grammatikasi, xususan, sonlarning nutqiy dinamikasi va uslubiy imkoniyatlari bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. G'. Abdurahmonov va Sh. Shukurov "O'zbek tili grammatikasi" asarida sonlarning tarixiy taraqqiyoti, qadimgi turkiy tildagi miqdor ifodalash usullari va zamonaviy o'zbek tilidagi sintaktik aloqalarni kompleks tarzda o'rganishgan. Tilshunos A.G'ulomov son so'z turkumi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida sonlarni quyidagicha tasniflaydi :

1. Miqdor son : bir, ikki, o'n.
2. Tartib son : birinchi, ikkinchi.
3. Dona son : ikkita, beshta.
4. Taqsim son : ikkitadan, beshtadan.
5. Jamlovchi son : ikkovi, uchovi. ²

Bu o'zbek tili uchun eng muhim klassifikatsiyalardan biridir.

Rus tilshunosligida sonlarning alohida so'z turkumi sifatidagi chegaralarini belgilashda V.Vinogradovning xizmatlari beqiyosdir. V. Vinogradovning "Rus tili : So'z haqidagi grammatik ta'limot" ("Русский язык : Грамматическое учение о слове") kitobi jahon tilshunosligida sonlarni alohida turkum sifatida ajratish va ularning miqdoriy kategoriyasini tushunishda padevor asar hisoblanadi. V.Vinogradov sonning semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra ularni mustaqil so'z turkumi sifatida ajratgan. U sonlarni quyidagi turlarga ajratgan : 1.Miqdor sonlar - predmet miqdorini bildiradi (bir, ikki, o'n, yuz).

2. Tartib sonlar - predmet tartibini bildiradi (birinchi, ikkinchi, o'ninchi).

Shuningdek, A.Shaxmatov sonlarning boshqa turkumlar, xususan, sifat va otlar bilan o'xshash hamda farqli jihatlarini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan.

Ingliz va jahon tilshunosligida sonlar ko'pincha "Numerals" yoki "Quantifiers" (miqdor bildiruvchilar) sifatida kognitiv yo'nalishda o'rganiladi. Mashhur tilshunos J.Hurford o'zining "Sonlarning lingvistik nazariyasi" ("The Linguistic Theory of Numerals") asarida sonlarning inson ongida shakllanishi va tilda generatsiya qilinish mexanizmlarini tahlil qilgan. B.Comrie esa dunyo tillarining tipologiyasini qiyoslagan holda, sonlarning turli tillar tizimidagi grammatik qurilishini o'rgangan. B.Comriening "Sonlar tizimi tipologiyasi" ("The typology of number systems") asarida dunyoning turli tillardagi sonlar tizimini qiyosiy o'rganib, miqdoriy munosabatlarning lisoniy ifodasi bo'yicha umumiy nazariyalarni ilgari surgan. H. Sweet esa sonlarni struktur jihatdan tahlil qilgan. U quyidagicha ajratadi :

1. Aniq sonlar (definite numerals) : besh, o'n (five, ten)
 2. Noaniq sonlar (indefinite numerals) : ko'p, bir qancha, bir nechta (many, few, several)
- H. Sweet ayrim hollarda noaniq sonlarni olmoshga yaqinlashtiradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, son so'z turkumi tilshunoslik tizimida shunchaki miqdor bildiruvchi vosita emas, balki insoniyatning mantiqiy tafakkuri va olamni raqamli idrok etishining murakkab lisoniy in'ikosidir. Ushbu soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Birinchi, Azim Hojiyev va G'ani Abdurahmonov kabi o'zbek olimlarining fundamental asarlari o'zbek tili tabiatiga xos bo'lgan sonlarning boy semantik imkoniyatlarini, xususan, numerativ so'zlar va jamlovchi sonlarning o'ziga xosligini ilmiy jihatdan to'liq asoslab berdi. Bu esa o'zbek tilshunosligining milliy grammatik bazasini mustahkamlovchi asosiy omil bo'ldi.

Ikkinchi, rus olimi Viktor Vinogradov va ingliz tadqiqotchisi Jeyms Hurford kabi jahon tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan kognitiv va strukturaviy yondashuvlar sonlarning universal tabiatini tushunishga yordam beradi. Ularning nazariyalari sonlarni nafaqat

² G'ulomov A. G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II qism: Morfologiya. – Toshkent: Fan, 1947

grammatik birlik, balki inson ongida matematik bilimlarning til shakliga ko'chishi sifatida talqin etadi.

Umuman olganda, son so'z turkumi bo'yicha to'plangan boy ilmiy meros hamda zamonaviy klassifikatsiyalar tilimizning aniqligi va mantiqiyiligini saqlashda muhim poydevordir. Kelajakda ushbu sohani neyrolingvistika va matematik tilshunoslik kesimida o'rganish o'zbek tilining jahon axborot maydonidagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, so'z yasalishi va imlo masalalari. – Toshkent: Fan, 1989. – 120 b.
- Kendjaeva, G. F. (2020). The methods of translating phraseological units in the Russian and English translations of the novel" Days Gone by" by Abdulla Qadiri. ISJ Theoretical & Applied Science, 9(89), 316-321.
- KENJAYEVA, G. (2021). INTERPRETATION OF HOUSEHOLD REALITIES IN TRANSLATIONS OF A. KADIRI'S NOVEL" DAYS GONE BY. In E-Conference Globe (pp. 323-227).
- Кенджаева, Г. Ф. (2021). МЕТОДЫ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В РОМАНЕ А. КАДЫРИ «МИНУВЩИЕ ДНИ». МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-2).
- Fattilloevna, K. G. (2021). Methods of Rendering Realias in the Translations of the Novel "Days Gone by" by Abdulla Qadiri. JournalNX, 7(09), 166-171.
- Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
- Nurullayevna, S. N., & Nuriddinovna, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 269.
- Salikhova, N. N. (2018). MACRO CLASSROOM MANAGEMENT WITH SHORTAGE OF BOOKS. Теория и практика современной науки, (3 (33)), 63-65.
- Yusuphodjaeva, S. T., & Gafurova, S. S. (2023). Methods Of Cognitive-Behavioral Psychotherapy In The Treatment Of Rheumatoid Arthritis. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1-2), 701-706.
- Гафурова, С. Ш., & Юсупходжаева, С. Т. (2023). Ta'sirlangan ichak sindromida nevroitik buzilishlarni differensial taxlili va tibbiy psixologik yordamni takomillashtirish (Doctoral dissertation).
- Surayyo, Y., & Sabohat, G. (2023). Depressive-anxiety disorders in patients with rheumatoid arthritis and methods of their psychocorrection. Interpretation and researches, 2(3), 9-16.
- АНАМИЯТИ, D., & Махаматжанова, N. M. FS Mirxaydarova. SM Mirxaydarova Академические исследования в современной науке, 2(7), 19-20.
- Hamraev, B., & Махаматжанова, N. (2023). Modern methods of treatment of sexual disorders. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(15), 73-74.
- Gafurova, S. S., Sharodiya, D., & Alimuhamedova, S. J. (2025). TO IDENTIFY ANXIETY-PHOBIC DISORDERS IN IRRITABLE BOWEL SYNDROME AND STUDY THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE BEHAVIORAL THERAPY IN THEM.
- Xamdamovna, I. M. (2025). TA'LIM JARAYONIDA O'YIN ASOSIDAGI METODLARNING NAZARIY ASOSLARI. IZLANUVCHI, 1(6), 312-327.
- Xamdamovna, I. M. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF ASINETONE SPECIES IN ENGLISH AND UZBEK. Scientific progress, 3(3), 397-400.
- Xamdamovna, I. M. (2025). HÖRVERSTÄNDNIS UND LESEN IN ENGLISCH PSYCHOLINGUISTISCHE KLASSIFIZIERUNG VON ÜBUNGEN FÜR SPRACHAKTIVITÄTEN. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(4), 103-107.
- ULUGBEKOVNA, R. S. (2020). The First Period of Washington Irving's.

- Нурмухаметова, С., & Расулова, С. (2022). The influence of Samuel Taylor Coleridge as a poet, critic and philosopher to english literature. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 39-40.
- Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей АИ Куприна 1890-1910 годах. Hamkor konferensiyalar, 1(2), 502-504.
- Алиқулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов Александра Куприна. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 2), 172-174. qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). THE ROLE OF PRAGMATICS FOR LEARNING ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Modern Scientific Research, 3(7), 51-56.
- qizi Furqatova, H. A., & qizi Najmiddinova, M. N. (2025). SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF CONCEPTS IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES. International Journal American Journal of Modern World Sciences, 2(7), 59-67.
- Nadjmiddinova, M. N. (2025, October). NEW INTERPRETATIONS OF THE TRANSLATION METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. In CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 7, pp. 112-116).
- Fayzullayeva, M. B. (2023). O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA "ONA" VA "AYOL" OBRAZLARI TALQINI. Экономика и социум, (6-2 (109)), 131-134.
- Файзуллаева, М. (2023). Лингвистический и лингвокогнитивный анализ образа матери в произведениях Уткира Хашимова. Общество и инновации, 4(9), 295-298.
- Fayzullayeva, M. B., Sattarova, I. B., & Makhmudova, M. A. (2021). The effect of teaching vocabulary through ICT on EFL learners. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1632-1637.
- Akbaralievich, L. A. (2025). THE INFLUENCE OF ENGLISH LOANWORDS ON THE MODERN UZBEK LANGUAGE. SHOKH LIBRARY, 1(12).
- Akbaralievich, L. A. (2023). CONTINUOUS PHASE AND MEANS OF USE IN UZBEK LANGUAGE. MATERIALLAR TO'PLAMI, 390.
- Latipov, A. A. (2023). FINAL PHASE "TO STOP" AND THEIR EXPRESSIONS IN UZBEK LANGUAGE. Экономика и социум, (11 (114)-1), 192-195.
- Ибадуллаев, Ф. (2024). Сравнительный анализ образовательных систем Финляндии и Узбекистана. Переводоведение и лингвистика в эпоху цифровых технологий: изучение передовых подходов, 1(1), 97-99.
- Ибадуллаев, Ф. Ф. (2016). Несколько записей о формировании текста. Ученый XXI века, (4-4 (17)), 46-48.
- Yuldasheva, S. (2020). Importance of using various pedagogical technologies in lessons. Результаты научных исследований в условиях пандемии (COVID-19), 1(04), 126-128.
- Yuldasheva, S. T. (2021). Interactive Methods of Teaching Children and Its Theoretical Basis and Personal and Professional Development of a Teacher. International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology, 9(11).
- Муродова, Ф. (2025). The importance of country research project for developing language skills. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 426-428.
- JAMALOVA, N. (2020). BOSHLANGICH TALIM OQUV-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYANING ORNI. Monografia pokonferencyjna science, research, development, 32(2).
- JAMALOVA, N. (2022). Pedagogical Conditions for the Development of Individual Characteristics of Students of a Higher Educational Institution.
- Turakhanov, R. (2025). Graphic systems of uzbekistan: historical foundations, contemporary challenges, and future development of alphabets. International Journal of Artificial Intelligence, 1(5), 1196-1200.

- Turakhanov, R. (2025). THE CONCEPT OF THE IDEAL HUMAN IN ISLAMIC LITERATURE: A MULTIDISCIPLINARY ANALYSIS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(3), 807-810.
- Васильченко, Л. А. (2024). V Міжнародний форум експертів із менопаузальної гормональної терапії.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ИЗМЕНЕНИЕ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТРИМЕСТРА БЕРЕМЕННОСТИ. *Confrencea*, 1(1), 198-200.
- Агабабян, Л. Р., Ахмедова, А. Т., & Раббимова, Н. (2024). ОСОБЕННОСТИ КОЛЬПОСКОПИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ У ПЕРВОРОДЯЩИХ. *Confrencea*, 1(1), 204-205.
- Ахмедова, А. Т., Султонова, М., & Омонова, М. (2024). СОМАТИЧЕСКАЯ КОМОРБИДНОСТЬ ПРИ ПЕРВОЙ БЕРЕМЕННОСТИ. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 4(1-2), 60-67.
- Тлегенов, М. Т. (2021). ПОПУЛЯЦИОННЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. *ББК 1 Р76*, 27.
- Тлегенов, М. Т. (2026). ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИИ ПЕСЧАНКИ (MERIONES TAMARISCINUS) В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Advances in Science and Environment*, 2(03), 21-24.
- Тлегенов, М. Т., & Утемуратова, Г. Н. (2012). ОЦЕНКА ОБИЛИЯ НАСЕЛЕНИЯ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ ТРАНСФОРМИРОВАННЫХ ТЕРРИТОРИЙ В НИЗОВЬЯХ АМУДАРЬИ. *Аспирант и соискатель*, (6), 66-68.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). CLINICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE DISORDERS AND THYROID GLAND HORMONES IN HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 506-511.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). STRUCTURE OF PSYCHOEMOTIONAL DISORDERS IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 512-518.
- Zaxirjanovna, O. R. (2026). EFFECTIVENESS OF COGNITIVE-BEHAVIORAL THERAPY IN WOMEN WITH HYPOTHYROIDISM. *Научный Фокус*, 3(32), 526-532.
Shuningdek, bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhiti – shaxsga yo'naltirilgan yondashuv demakdir.

Asosiy qism: Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.³

Barchamizga ma'lumki, tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ijtimoiy pedagogik ishning shunday shakllarini vujudga keltirishi kerakki, bunda har bir bola o'z imkoniyatlarini namoyon qila olishi uchun qulaylik yarata olishi, madaniy muhitni to'raligicha o'zlashtirishi va o'zining barcha quvvatlarini ro'yobga chiqarishi lozim.

Bugungi kunga kelib bola shaxsga rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yangicha mazmun bilan boyimoqda. Buning natijasida bolaning ehtiyojlari insoniy munosabatlar ob'yekti sifatida faollashmoqda. Bu o'zaro kelishuv, bir-birini tushunish, hamkorlik hamda qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ob'yektiv, sub'yektiv munosabatlar yig'indisini har bir insonga xos bo'lgan mustaqil qadriyatlar sifatida aniqlashga intilamiz.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagog e'tiborini bolaning ajralmas shaxsga, unda nafaqat intellektual qobiliyatlar va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limda asosiy qadriyatning bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Pedagog har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya – bu:

- tarbiyalanuvchi va pedagog o'rtasidagi samimiy hamkorlik munosabatlarini;
- kun davomida amalga oshirilayotgan faoliyatdan tarbiyalanuvchi ham, pedagog ham ijobiy emosional qoniqish olishni;
- muloqot va mehnat orqali ijobiy natijalarga erishish hissini;
- o'ziga va do'stlariga yordam berish ko'nikmasi kabilarni rivojlantirish orqali namoyon bo'ladi.

Bola shaxsga yo'naltirilgan ta'lim faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda muammoli ta'lim turining ahamiyati kattadir. Pedagog tomonidan tarbiyalanuvchilarga mavzuga oid muammoli vaziyatlarni yaratish, mavzu doirasida muammoning qo'yilishiga e'tibor qaratish, shuningdek, muammoning yechimini topish kabi vaziyatlarning yaratilishi samarali vosita hisoblanadi.

³ A. Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". T., "O'qituvchi". 1994

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mazkur ta'lim turidan har qaysi pedagog samarali foydalana oladi. Ta'limiy faoliyat jarayonida muammoli vaziyatdan qay tartibda foydalanish pedagogning yondashuviga, uning ijodkorligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'limiy faoliyat jarayonida muammoli vaziyatdan foydalanilganida, tarbiyalanuvchida qiziqish, e'tibor berish, vaziyatni hal qilishga bo'lgan intilish namoyon bo'ladi.

Masalan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida fevral oy mavzusi "G'aroyib dunyo" etib belgilangan. Tayyorlov guruhida 1-hafta mavzusi "Qo'shni mamlakatlar" mavzusi. Mavzudan kelib chiqqan holda tarbiyachi muammoli vaziyatlarni yaratishi mumkin. Masalan, turli mamlakatlarning rasmlarini qo'yib, tarbiyalanuvchilardan qaysi rasmdagi mamlakat bizning respublikamiz bilan qo'shni ekanligini so'rash. Tarbiyalanuvchi tomonidan javob olingach, "Nima uchun shunday deb o'ylaysan?" deb so'raladi. Tarbiyalanuvchi tomonidan berilgan javob tarbiyachi tomonidan tahlil etiladi. Tarbiyalanuvchi nima uchun bu mamlakatni tanladi? Qaysidir binosiga ko'ra, insonlar tasvirlangan bo'lsa, kiyimlariga qo'ra, balki tabiat olamiga ko'ra va h.o. Shuningdek, qo'shni mamlakatlarga xos musiqa eshittirish orqali ham tarbiyalanuvchilar uchun muammoli vaziyat yaratish va ular tomonidan berilgan javoblar albatta tahlil etilishiga e'tibor berish lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali va ijobiy tus olishi uchun MTT va oila hamkorligi ham kata o'rin egallaydi. Aytish joiz bo'lsa onalarning ham roli munosib tarzda bog'langan. Darvoqe, shu o'rinda, Fitratning "Oila" asarida keltirilgan: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz-millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur"⁴, – degan fikrlarni qayd etish lozimdir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy rivojlantirish masalalari quyidagilarda aks etadi:

✓ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish orqali bolalarni umumiy rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish va ularning umumiy xususiyatlari bilan bog'liq holda pedagogik yordam ko'rsatishning mavjud darajasi va shart-sharoitlariga tayanish;

✓ bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga tayanilgan holda maktabgacha ta'lim-tarbiyani jarayonini tashkil etish, bu jarayonda bolalarning sub'yekt sifatida namoyon bo'lishlarini ta'minlash, ularni har tomonlama rivojlantirishga erishish, umumiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ustuvor maqsadga aylantirish;

✓ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar birinchi navbatda tarbiyachining pedagogik qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlarini hisobga olish;

✓ bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali ularni umumiy rivojlantirish jarayonining mazmunini bolaning qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tanlash va amalga oshirish.

Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim – tarbiyalanuvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Mashg'ulotlar jarayonida pedagogik texnologiyalar talablari asosida o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda ta'lim samaradorligi, asosan tarbiyalanuvchining o'qitish, tarbiyalash jarayonidagi o'rni, tarbiyachining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi.

⁴ A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 112.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda bola pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunda butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ✓ pedagogik jarayonda shaxs ob'yekt emas, sub'yekt hisoblanadi;
 - ✓ har bir bola qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda individual yondashuvning mohiyati shundaki, u mashg'ulot tomonga harakatlanishni taqozo etadi. Ta'lim oluvchilarning mavjud imkoniyatlarini inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi.
- Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:**
- har bir ta'lim oluvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Tarbiyachida barcha ta'lim oluvchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak;
 - bolaga yutuqni ma'qullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni bilim olishdan qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak;
 - bevosita majburlashga yo'l qo'ymaslik, qo'loqlikka va boshqa kamchiliklariga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
 - mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchiga o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko'maklashish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. "Bolalarning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan rivojlanish muhiti mustaqillikning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Agar bola o'z qiziqishlarini, ehtiyojlarini bema'lol anglasa, o'z xohish-irodasini namoyon qilsa, uning faoliyati kuchli motivatsiyaga ega bo'ladi, u hissiy jihatdan to'yingan va psixologik jihatdan qulaydir".⁵ Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning markazida o'sayotgan inson, uning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas'uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. Shuni unutmaslik kerakki, kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, tarbiyachi va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. "Tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan interfaol usullar bolalarning qiziqishi ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. "Tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan interfaol usullar bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta'limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi".

Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Maktabgacha davr – bu bolada motivatsiya, o'z-o'zini namoyon etish, barpo qilish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bola shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi.

Ta'lim strategiyasi maktabgacha ta'limning yuqori sifatini kafolatlashi kerak. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda

⁵ Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" Darslik "Tafakkur" –T.: 2019.

muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi. Bularning barchasi bolaning shaxsiy faolligi orqali rasm chizish, qurishyasash, musiqa va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining asosiy vazifasi etib har bir bola shaxsini maksimal rivojlantirish va uning keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta'minlash maqsadida muassasada ijobiy psixologik mikroklimat va sharoit yaratishni belgilaydi. Ota-onalar va tarbiyachilardan talab qilinadigan narsa esa katta sabr, mehr va bola tarbiyasiga ilmiy asoslangan yagona yondashuvdir. To'g'ri yo'sinda olib borilgan tarbiya natijasida bola mustaqil fikr yuritishga va katta hayotga dadil qadam qo'yishga tayyor bo'ladi.

Xulosa: Xulosa qilganda bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga asoslanib ishlayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar an'anaviy dastur bo'yicha tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo'ladilar. Chunki bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda bolaga yaxlit shaxs sifatida qaraladi, unda tana, aql, hissiyot va ijodkorlik mujassamdir, shu bilan birga shaxsiy tarixi va ijtimoiy kelib chiqishi ham inobatga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son
- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 464 bet
- Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
- “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish”. Metodik qo'llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
- “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo'llanma. T.: 2001.
- Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo'llanma. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993. – 84-bet.
- Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165
- A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 112.
- A. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994

Cooperation Of Preschool Educational Organization With The Family In Developing Creative Abilities In Preschool Children

Qurbanova Xusnidaxon Anvarjon qizi

Master's student of Kokand State University.

Abstract

The article analyzes the role and significance of the collaboration between preschool educational institutions (PEI) and families in developing creative abilities in preschool children. It discusses the impact of the cooperation between families and PEIs on the enhancement of children's creative potential and examines effective methods and approaches.

Key words: Preschool education, creative abilities, family and PEI collaboration, child development, teaching methods.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda MTT (Maktabgacha ta'lim tashkiloti) ning oila bilan hamkorligining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Oila va MTT o'rtasidagi hamkorlik bolalarning ijodiy salohiyatini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatadi, qanday metod va yondashuvlar samarali ekanligi haqida gapiriladi va bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oilaning o'рни va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ijodiy qobiliyat, oila va MTT hamkorligi, bolalar rivojlanishi, ta'lim metodlari.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimi haqida aytgan so'zlariga ko'ra: *"Ta'lim tizimini isloh qilish va uning sifatini oshirish — bu jamiyatning asosiy vazifasi. Maktabgacha ta'lim tizimi yangi avlodning ilk qadamlari bo'lib, uning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun oilalar va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik bo'lishi kerak."*¹ O'zbekistonda maktabgacha ta'limni takomillashtirish, unga innovatsion yondashuvlarni qo'llash jarayonida, oilalar bilan hamkorlikning ahamiyati oshib bormoqda. Bu hamkorlik bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim — bu bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bolaning dastlabki ta'lim va tarbiyasi, uning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va ijtimoiylashuvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali yo'li oilaning va ta'lim muassasasining birgalikdagi faoliyatidan kelib chiqadi. Bolalar rivojlanishining dastlabki bosqichlari, ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasalarida, ularning ijodiy qobiliyatlari va intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga doir nutqlarida, maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va uning sifatini oshirishning naqadar muhimligini alohida ta'kidlagan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lim, oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirilganda, yanada samarali bo'ladi. Respublikamizda 1998-yil — "Oila yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturini hayotga joriy etish natijasida oilaviy munosabatlarni huquqiy asslari takomillashtirildi. Bu dasturga ko'ra 3 yishgacha blasi bo'lgan ayollar byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan bo'lsalar, ular uchun ish haqining to'liq miqdori saqlangan holda ish vaqtini haftasiga 35 soatdan oshmaydigan muddati belgilanadi. Bundan ko'rinib turibdiki bolalarning rivojlanishida oilaning roli beqiyos va muhimdir. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimi haqida aytgan so'zlariga ko'ra: *"Kelajakni shakllantirishda o'qituvchi va ta'lim muassasalarining o'рни beqiyos. Har bir bola uchun eng muhim narsa bu — ijodiy salohiyatini rivojlantirish va o'zini ifoda etish imkoniyatini yaratishdir."*²

¹ Shavkat Mirziyoyev (2020). *Ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentii qarori.

² Mirziyoyev, Sh. (2020). *Ta'lim tizimini rivojlantirishga doir Prezident Farmonlari*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Shavkat Mirziyoyevning fikricha, maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida faqat bilim olish bilan cheklanmasdan, shaxs sifatida shakllanishi va o'z imkoniyatlarini to'liq rivojlantirishlari kerak.³

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash, tasavvur va o'zini erkin ifoda etish qobiliyatlari aynan oila va ta'lim muassasasining birgalikdagi faoliyatida shakllanadi. Ushbu maqolada oila va MTT o'rtasidagi hamkorlikning bolalar ijodiy rivojlanishidagi o'rni, yondashuvlar va metodikalar keng yoritiladi.

Asosiy qism: Maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalar o'rtasidagi hamkorlik — bu ikkala tomonning bolalar rivojlanishidagi mas'uliyatlarini birlashtiruvchi jarayondir. Oila bolaga dunyoqarashni, axloqni, qadriyatlarni o'rgatadi, ta'lim muassasasi esa ilmiy yondashuvlar va metodlar orqali bolani intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantiradi. Bu hamkorlik orqali bola muvozanatli va har tomonlama rivojlanadi. Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalar uchun o'zini ifoda etish, tasavvur va ijodiy fikrlash rivoji uchun ham oila, ham ta'lim muassasasi muhim omildir. Dunyoning mashhur oilasining fikriga ko'ra: "Dunyodagi eng katta ijodiy qobiliyatlar maktabgacha yoshdagi bolalarda mavjud, va bu qobiliyatlar o'z vaqtida rivojlantirilmasa, ular yo'qolib ketishi mumkin."⁴ Bundan ko'rinib turibdiki maktabgacha yoshdagi bolalarning deyarli barchalarida o'ziga hos qobiliyat va iqtidor mavjud. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim muassasasi ota – onalar bilan hamkorlikda ishlagan holda ko'zlagan maqsadlariga erishishi mumkin. Chunki bola oilada shakllanadi va o'sadi. Rivojlanishning asosiy qismi oilada ota – onaga taqlid qilgan holda yuz beradi. Agar bolalarning kichik yoshidan boshlab qobiliyatlarini aniqlagan holda ularni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirilsa samarali natijaga erishish imkoni yuqori bo'ladi.

Bolalar rivojlanishi va ta'limining har ikki muhim tomonini o'zida birlashtiradigan oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikning nazariy asoslari ko'p jihatdan psixologiya va pedagogikaning asosiy tamoyillariga tayangan. Bolaning shaxsiyati va qobiliyatlari, ayniqsa, maktabgacha yoshda shakllanadi. Pedagogikada bu jarayonlarni ilgari suruvchi ko'plab yondashuvlar mavjud.

Lev Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi asosida, bolaning rivojlanishi atrof-muhitdagi ijtimoiy o'zgarishlar va o'zaro aloqalarga bog'liqdir. Vigotskiy fikricha, bolalar faqat o'ziga yaqin kattalar bilan muloqot orqali o'z salohiyatlarini rivojlantirishi mumkin. Bu nuqtai nazar oila va MTT o'rtasidagi hamkorlikning zarurligini ta'kidlaydi. "Bolalar o'zining aqliy va ijodiy salohiyatini atrofda ijtimoiy guruhlar orqali rivojlantiradi. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasida samarali aloqalar, bolalarning ijodiy rivojlanishining asosiy omilidir."⁵ Vigotskiyning fikriga ko'ra bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda uning yaqin insonlari yordam beradi ya'ni ota – onaning bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'rni katta. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish davomida oila bilan ham hamkorlik ishlarini olib borishi samarali natija beradi. Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni metindek mustahkamlash umumdavlat ahamiyatiga molik masaladir.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son

⁴ Montessori. M. The Montessori Method.- New York: Frederick A. Stokes Company, 1912-300 c

⁵ Vigotskiy, L. "Психология и педагогика"- Moskva: Pedagogika nashriyoti, 1970.-350c

Bolalarni kamtarlik va donolikka o'rgatishda buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlarini asos qilib olish foydalidir. U manmanlik, maqtanchoqlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi odatlarni qoralaydi va bunday zararli odatlar ustida ota – onalar sokinlik asosida ishlashlarini ta'kidlaydi. Bundan tashqari buyuk o'zbek olimi Fitratning "Oila" asarida keltirilgan: "Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo'lib ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz-millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur"⁶, – degan fikrlarni qayd etish lozimdir. Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va MTT o'rtasidagi hamkorlik juda muhim. Oila maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan taqdim etilayotgan metodlarni uyda qo'llash orqali bolalar o'zlarini yanada erkin va to'liq ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Oila va MTT o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalar uchun interaktiv ta'lim muhiti yaratadi. Bu jarayonda bolalar rasm chizish, qo'l san'ati bilan shug'ullanish, musiqiy va drama mashg'ulotlariga qatnashish kabi faoliyatlar orqali ijodiy salohiyatlarini oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirilgan. Masalan, "Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash" dasturi, maktabgacha ta'lim muassasalarida oilalar bilan yaqindan ishlashni ta'minlashga qaratilgan. Bu dastur doirasida oila va maktabgacha ta'lim muassasalarining birgalikdagi faoliyatini rag'batlantirish, pedagogik metodlarni takomillashtirish maqsad qilingan. Toshkent va Samarqand viloyatlarida amalga oshirilgan tajribalar natijasida, oilalar maktabgacha ta'lim muassasalari bilan birgalikda ijodiy va pedagogik faoliyatlarni tashkil etishga ko'proq jalb qilingan. Bu esa bolalarda ijodiy fikrlash, tasavvur va yangiliklarni o'zlashtirishga yordam beradi. O'zbekistonda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator dasturlar amalga oshirilgan. Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida oilalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ijodiy mashg'ulotlar bolalar rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'z pedagogik ishlarini oilalar bilan birgalikda muvofiqlashtirgan holda, bolalarning ijodiy salohiyatlarini oshirishga muvaffaq bo'lishdi. O'zaro muloqot va birgalikda amalga oshirilgan mashg'ulotlar bolalarning ijodiy rivojlanishini yanada kuchaytiradi. Oila va MTT hamkorligi bu jarayonda eng muhim rolni o'ynaydi. Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlik bolalarni o'zlarini ifoda etishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Ijtimoiy hamkorlik bolalar ijodining rivojlanishiga yordam beradi. Oila bolaga ijodiy faoliyatlar o'rgatadi, MTT esa buni ilmiy metodlar bilan boyitadi. Bolalar rasm chizish, musiqa va drama mashg'ulotlari orqali, uyda va ta'lim muassasasida olingan bilimlar o'zaro bog'liq va to'ldiriladi, shuning uchun bolaning ijodiy qobiliyatlari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar bolalar bilan yakka tartibda ishlash bilan birga oila bilan ham hamkorlik tadbirlarini ham amalga oshirishi kerak. Bu tadbirlar bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Agar ota – ona bola bilan oila davrasida vaqt o'tkazolmaydigan xolatlar yuz beradigan bo'lsa pedagog ota – onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilgan holda ularni bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlari bilan batafsil tanishtirishlari mumkin. Bunda pedagog xorij tajribalaridan foydalanish samarali natija beradi. Bu borada biz Fransiya maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi "Onalar kulibi" faoliyatini misol qilib ko'rsatishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Onalar klublari ko'plab mamlakatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida (MTT) tashkil etilgan. Bu klublar asosan oilalar va maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga oid tajriba almashish, onalarga pedagogik bilimlar berish maqsadida tashkil etiladi. Onalar klublari asosiy maqsadlaridan biri oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi muloqotni rivojlantirishdir. Ba'zi davlatlarda bu tashabbus muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, jumladan: Fransiya – Bu mamlakatda onalar klublari maktabgacha ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'langan bo'lib,

⁶A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 112.

ular bolalarning ta'limiga oid turli mashg'ulotlar o'tkazishadi. Onalar uchun ijtimoiy va pedagogik tadbirlar, psixologik seminarlar o'tkaziladi. Bu faoliyatdan maqsad onalarga pedagogik va psixologik ko'mak va tavsiyalar berishdan iborat.

Xulosa: Maktabgacha ta'lim tizimida oila va MTT o'rtasidagi hamkorlik bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik bolalar rivojlanishida muhim omil bo'lib, o'zaro aloqalar orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi, oilalar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda davom etmoqda. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga xorij tajribalarini uyg'unlashtirgan xolda oila hamkorligini yo'lga qo'yish samarali natija beradi. Bolalar ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun ilmiy yondashuvlar va pedagogik metodlarni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son
- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. – 464 bet
- Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
- “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish”. Metodik qo'llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
- “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo'llanma. T.: 2001.
- Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo'llanma. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993. – 84-bet.
- Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165
- A.Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 112.
- A. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994
- Vigotskiy, L. "Психология и педагогика"- Moskva: Pedagogika nashriyoti,1970.-350c
- Montessori. M. The Montessori Method.- New York: Frederick A. Stokes Company,1912-300

Lexical-Semantic And Structural Analysis Of English Approaches In Modern Uzbekistan

Saloxiddinova Sevara Abdirakhmonovna,

Teacher of English at the Samarkand Campus of the Oriental University,

saloxiddinovasevara@gmail.com

Ergasheva Go'zal Muhiddin qizi,

2nd year student of the Department of Philology and Languages: English at the Samarkand Campus of the Oriental University

Abstract

This scientific article explores the lexical-semantic and structural characteristics of borrowings entering the Uzbek lexicon from the English language during the process of globalization. The primary objective of the research is to identify the mechanisms of formation for anglicisms as neologisms within the modern Uzbek vocabulary and to determine their functional-stylistic scope. While the object of the study comprises English loanwords actively used in the Uzbek linguistic context, the subject of the work focuses on the stages of their structural adaptation and semantic shifts.

Keywords: Globalization, Uzbek linguistics, lexicology, neologisms, anglicisms, borrowed words, lexical-semantic analysis, structural adaptation, terminology, vocabulary.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada globallashuv jarayonida ingliz tilidan o'zbek tili leksikasiga kirib kelayotgan o'zlashmalarning leksik-semantik va struktur xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — zamonaviy o'zbek tili lug'at tarkibidagi anglisizmlarning neologizm sifatida shakllanish mexanizmlarini va ularning funksional-uslubiy doirasini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tili iste'molida faol qo'llanilayotgan inglizcha o'zlashmalar olingan bo'lsa, ularning strukturaviy adaptatsiyasi va ma'no ko'chishi bosqichlari ishning predmeti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, o'zbek tilshunosligi, leksikologiya, neologizmlar, anglisizmlar, o'zlashma so'zlar, leksik-semantik tahlil, struktur adaptatsiya, terminologiya, lug'at tarkibi.

KIRISH

Milliy o'zlikni anglash va xalqning ma'naviy merosini asrashda til eng asosiy poydevor hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, ona tilimizni asrab-avaylash, uning nufuzini oshirish va boyitib borish doimiy vazifamizdir. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda bank-moliya tizimi kabi strategik sohalarida o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, yangi atama va tushunchalarni ilmiy asosda shakllantirish milliy taraqqiyotning garovidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ona tilimizning nufuzini oshirish va uni zamon talablari asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar nafaqat tilning sof saqlanishiga, balki uning xalqaro terminologiya bilan boyishini ilmiy tartibga solishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni tilimiz rivojida yangi davrni boshlab berdi. Mazkur farmon bilan 21-oktabr sanasi "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi hamda Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Ushbu departament oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri — ilm-fan, IT va iqtisodiyot sohalariga kirib kelayotgan yangi atamalarni tartibga solish hamda o'zbek tilining sohaviy lug'atlarini boyitishdan iboratdir.

Shuningdek, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni bilan "2020—

2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada:

- Davlat tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va jahon axborot tarmog'idagi o'rnini mustahkamlash;
- Yangi atamalarni (neologizmlarni) ilmiy asosda standartlashtirish;
- O'zbek tilining sohaviy atamalar lug'atlarini doimiy ravishda yangilab borish kabi strategik vazifalar belgilandi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlikni anglash va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylikdir". Shunga ko'ra, ingliz tilidan kirib kelayotgan neologizmlarni tahlil qilish va ularning o'zbek tili lug'at tarkibidan o'rin olishini ushbu islohotlar va huquqiy hujjatlar asosida ilmiy o'rganish bugungi kun filologiya fanining eng dolzarb vazifasidir.

Til jamiyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadigan jonli organizm bo'lib, ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar, eng avvalo, uning leksik qatlamida o'z aksini topadi. Bugungi jadal taraqqiyot davrida texnologik inqilob va geosiyosiy integratsiya jarayonlari natijasida tillararo muloqot va so'z o'zlashish sur'ati misli ko'rilmagan darajada o'sdi. Bu jarayon o'z navbatida o'zbek tili lug'at tarkibining yangi qatlam — neologizmlar hisobiga boyishiga zamin yaratmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Etimologik jihatdan neologizm tushunchasi (yunoncha neos – "yangi", logos – "so'z") jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, yangi paydo bo'lgan ashyo yoki tushunchalarni ifodalovchi lisoniy birliklarni anglatadi. Neologizmlar tilda dastlab noodatiy unsurlar sifatida ko'rinsa-da, iste'mol darajasi oshishi bilan o'zining "yangilik" xususiyatini yo'qotib, tilning faol lug'at qatlamiga integratsiyalashadi.

O'zbek tili leksikasining boyish manbalari tarixan ichki va tashqi omillarga bo'linadi. XIX-XX asrlarda kechgan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar so'z o'zlashish dinamikasini tezlashtirdi. Ushbu davrda ko'plab yevropa tillariga xos birliklar rus tili vositachiligida kirib kelgan bo'lsa, bugungi kunda bevosita o'zlashish jarayoni ustuvorlik qilmoqda.

Hozirgi kunda inglizcha o'zlashmalarning o'zbek tiliga kirib kelishi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

To'g'ridan-to'g'ri o'zlashish: O'zbek tilida aniq muqobili bo'lmagan yoki texnik ehtiyoj tufayli qabul qilingan so'zlar (masalan: chat, bifshteks, tender).

Sohaviy terminologik o'zgarishlar: Iqtisodiyot, media va IT sohalaridagi reyting, marketing, brifing, imidj kabi birliklar nutqning ilmiyilgini ta'minlash va xalqaro muloqotga moslashish maqsadida faol qo'llanilmoqda.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanilib, inglizcha neologizmlarning o'zbek tili leksik-semantik tizimidagi o'rni va ularning funksional uslublardagi adaptatsiyasi o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy o'zbek tili leksikasini kuzatar ekanmiz, kundalik hayot ehtiyojiga aylangan, biroq "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'TIL) nashrlarida hali o'z aksini topmagan ko'plab neologizmlarga duch kelamiz. Masalan, minimarket, gipermarket, netbuk, sensor, flesh-xotira kabi so'zlar jamiyatda faol qo'llanilmoqda.

Tadqiqot jarayonida inglizcha o'zlashmalarning o'zbek tili muhitida semantik o'zgarishlarga uchrashini bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. Etimologik va zamonaviy ma'no o'rtasidagi tafovut. Ayrim so'zlar o'zlashgan tildagi tub ma'nosidan uzoqlashib, o'zbek tilida mutlaqo boshqa semantik mazmun kasb etadi:

Yumor (ingl. humour — fe'l-atvor, kayfiyat; lot. humor — namlik) — o'zbek tilida faqat badiiy yoki nutqiy tasvir vositasi, kulgili hazil ma'nosida mustahkamlandi.

Kollej (ingl. college — birodar, o'quv yurti) — G'arbda umumiy o'quv yurti bo'lsa, o'zbek tilshunosligi va ta'lim tizimida o'rta maxsus kasb-hunar muassasasi sifatida terminologik qat'iylik kasb etdi.

Kokteyl (ingl. cocktail — xo‘roz dumi) — etimologik "xo‘roz dumi" ma‘nosidan uzoqlashib, turli ichimliklar aralashmasi (alkogolli yoki alkogolsiz) tushunchasiga o‘tdi.

2. Miqdoriy o‘shish va leksikografik tahlil. Inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi ulushi dinamik tarzda o‘shib bormoqda. Agarda O‘TILning eski nashrlarida inglizcha so‘zlar soni 80 taga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, yangi nashrlarda bu ko‘rsatkich 500 dan ortdi. Sohaviy lug‘atlarni (IT, internet, moliya) hisobga olgan holda, bugungi kunda o‘zbek tilidagi anglisizmlar soni 1000 tadan oshganini kuzatish mumkin.

3. Sohaviy neologizmlarning funksional tahlili. Tadqiqot doirasida to‘plangan materiallar quyidagi sohaviy guruhlarga ajratildi:

Texnologik: Mikser (elektr asbob), Pleyer (audio moslama), Provayder (internet vositachisi).

Ijtimoiy-siyosiy: Miting (ommaviy yig‘ilish), Menejment (boshqaruv fani), Prodyuser (loyiha nazoratchisi).

Sport: Nokdaun (boks), Trening (mashg‘ulot).

4. Etimologik qiziqish va xalqona etimologiya. Ayrim neologizmlar o‘zining etimologik asosi bilan qiziqish uyg‘otadi. Masalan, Kovboy (cow-boy — sigir boquvchi yigit) va Xot-dog (hot-dog — issiq kuchuk). Ta‘kidlash joizki, xot-dog iborasi 1884-yildan boshlab sosiska ma‘nosida qo‘llanila boshlagan bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘noni emas, balki ma‘lum bir ijtimoiy metaforani ifodalaydi.

Inglizcha o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga kirib kelishida kuzatiladigan yana bir dolzarb muammo — bu variativlik, ya‘ni bir so‘z imlosining ikki xil ko‘rinishda uchrashidir. Masalan: noutbuk/notbuk, yogurt/yo‘gurt, pleyer/pleyyer, bluming/blyuming, kanistr/kanistra. Bunday holatlar yangi o‘zlashmalarda hali "yaxshi o‘zlashtirilmaganlik" (assimilatsiya bo‘lmaganlik) alomati hisoblanadi. Tilshunoslikda imlo variantdorligini kamaytirish va ularni yagona akademik normaga keltirish nutq madaniyatini yuksaltirishning muhim shartidir.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tili leksikasiga ingliz tilining ta‘siri bevosita aloqalar natijasida tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda inglizcha neologizmlar nafaqat yangi tushunchalarni nomlamoda, balki polisemantik (ko‘p ma‘noli) xususiyat kasb etib, nutqning ta‘sirchanligi va lo‘ndaligini oshirishga xizmat qilmoqda. Sport, harbiy ish, kulinariya va moda kabi sohalardagi anglisizmlarni o‘z o‘rnida va me‘yorida qo‘llash so‘zlovchi nutqining ham ilmiy, ham pragmatik sifatini ta‘minlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, neologizmlar jamiyat taraqqiyoti va zamon ehtiyoji mahsuli sifatida til tizimida doimiy o‘rin egallab bormoqda. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

❖ Leksik kengayish: O‘zbek tili lug‘at tarkibida inglizcha neologizmlarning miqdori eksponentsial tarzda ortmoqda va bu jarayon asosan axborot texnologiyalari hamda iqtisodiyot sohalari bilan bog‘liq.

❖ Ekvivalentlik muammosi: Ingliz tilidan kirib kelgan ko‘plab terminlarning o‘zbek tilida aniq muqobili (ekvivalent) mavjud emasligi sababli, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilmoqda va lisoniy ehtiyojni qoplamoqda.

❖ Leksikografik bo‘shliq: Kundalik iste‘molda faol bo‘lgan ayrim yangi o‘zlashmalar hali amaldagi izohli lug‘atlarga kiritilmagan bo‘lib, bu kelgusida lug‘atchilik (leksikografiya) sohasida yangi tahrirlarni talab etadi.

❖ Ortografik unifikatsiya: Imlo bo‘yicha variantdorlikka (ikki xil yozilishga) barham berish, neologizmlarning yagona standartini ishlab chiqish tilning imlo qoidalarini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 87-b.

Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘quv ideografik lug‘atini yaratish tamoyillari: Filol. fan. nomz. ... dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2010. – 6-b.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.



- Mahmudov N. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: me'yor va milliylik // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010. – №6. – 8-bet.
- Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
- Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

Analysis Of Automatic Web Data Collection (Web Scraping) Technologies

Sharipova Shahodat Bahodir qizi

Teacher: DSc associate professor **Qodirov Farrukh Ergash ogli**

Master's student of Shahrizabz State Pedagogical Institute

shahodatsharipova04@gmail.com

Annotation

Automatic web data collection (web scraping) is one of the important technologies for obtaining and analyzing information in today's digital age. Billions of data are stored on the Internet, but collecting them manually is time-consuming and error-prone. Web scraping technologies allow you to automatically extract data from websites. This article examines the basic definition, technical foundations, areas of application, advantages and disadvantages of web scraping. Libraries widely used for web scraping in programming languages such as Python, JavaScript, Java were analyzed. The article also addresses important questions about web scraping, including legal and ethical issues, robots.txt, API implementation, and data security. The results of the study show that, when used correctly and transparently, web scraping technologies can be a very effective tool for web applications, data analysis, sample research, and market monitoring.

Keywords: web scraping, web data collection, automation, data extraction, Python, BeautifulSoup, Selenium, web parsing, data security, digital technologies

Annotatsiya

Veb-ma'lumotlarni avtomatik yig'ish (web scraping) bugungi raqamli davrida ma'lumot olish va tahlil qilishning muhim texnologiyalaridan biri. Internet-tarmoqda milyardlab ma'lumotlar saqlanib turibdi, lekin ularni qo'lda yig'ish vaqt sarfi va xatolardan iborat. Web scraping texnologiyalari avtomatik ravishda veb-saytlardan ma'lumotlarni ekstraktatsiya qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada web scraping-ning asosiy ta'rifi, texnik asoslari, qo'llanilish sohalari, afzalliklari va xavflari o'rganiladi. Python, JavaScript, Java kabi dasturlash tillarida web scraping uchun keng qo'llaniladigan kutubxonalar analiz qilindi. Maqolada web scraping-ning huquq va etika masalalari, robots.txt, API qo'llash va ma'lumot xavfsizligi haqida muhim savollari ham o'rin olgan. Tadqiqotning natijalari ko'rsatadiki, to'g'ri va shaffof tarzda qo'llanganda web scraping texnologiyalari veb-aplikatsiyalar, ma'lumot tahlili, tanlama tadqiqotlari va bozor monitoring uchun juda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: web scraping, veb-ma'lumotlarni yig'ish, avtomatsiyalash, ma'lumot ekstraktatsiyasi, Python, BeautifulSoup, Selenium, veb-parsing, ma'lumot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar

1. Kirish

Zamonaviy raqamli davrda internetdagi ma'lumotlarning eksponensial o'sishi tadqiqotchilar, korxonalar va ma'lumotlar olimlari uchun ham imkoniyatlar, ham muammolarni keltirib chiqaradi. Har kuni yaratilayotgan ma'lumotlar hajmi misli ko'rilmagan darajaga yetdi; taxminlarga ko'ra, har kuni taxminan 2,5 kvintillion bayt ma'lumot yaratilmoqda. Biroq, bu ulkan raqamli makondan mazmunli ma'lumotlarni ajratib olish murakkab vosita va metodologiyalarni talab etadi. Veb-manbalardan avtomatlashtirilgan ma'lumot yig'ish uchun eng keng tarqalgan texnologiyalardan biri veb-scraping, ya'ni veb ma'lumotlarini ajratib olish yoki veb hosil qilish deb ataladi.

Veb-scraping maxsus dasturiy vositalar yoki dasturlash skriptlari yordamida veb-saytlardan strukturaviy va no-strukturaviy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda olish jarayonini anglatadi. Veb-saytlardan ma'lumotlarni qo'lda nusxalash va joylashtirish o'rniga, veb-scraping dasturchilar va ma'lumot tahlilchilariga veb-sahifalarga dasturiy ta'minot orqali kirish, HTML yoki XML hujjatlarni tahlil qilish va tegishli ma'lumotlarni strukturaviy formatda olish imkonini

beradi. Ushbu texnologiya elektron tijorat, moliyaviy xizmatlar, ko'chmas mulk, sog'liqni saqlash va akademik tadqiqotlar kabi turli sohalarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir nechta veb-manbalardan katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda to'plash va qayta ishlash imkoniyati tashkilotlarning bozor tahlili, raqobatbardoshlik bo'yicha razvedka va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish usullarini inqilobiy darajada o'zgartirdi.

Veb-ma'lumotlarni avtomatik yig'ish (web scraping) texnologiyalari bugungi ma'lumot bazasi va raqamli transformatsiya davrida qancha muhim ekanligini ko'rsatish kerak. Veb-texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, Internet-tarmoqda saqlanayotgan ma'lumotlarning hajmi eksponensial ravishda o'sib bormoqda. Har bir sekundda millionlab ma'lumotlar yangi veb-saytlarga qo'shilib, zamonaviy amaliyotlar uchun bu ma'lumotlarni samarali qayta ishlash zaruriyati paydo bo'ldi.

Web scraping - veb-saytlardan avtomatik ravishda ma'lumotlarni ekstraktatsiya qiluvchi texnologiya - bu muammoni yechishning eng samarali usullaridan biri. Python-da BeautifulSoup va Selenium kabi kutubxonalar, JavaScript-da Cheerio va Puppeteer, Java-da Jsoup kabi dasturlash alatlari web scraping-ni sodda va kuchli qildi. Lekin, web scraping texnologiyalarining qo'llanilishida huquq va etika masalalari, ma'lumot xavfsizligi va veb-sayt xizmatining uzilishi haqida jiddiy savollari mavjud.

Ushbu maqolaning maqsadi web scraping texnologiyalarining qanday ishlashi, ularning imkoniyatlari, cheklantirmalari va oqlanish uchun zarur shartlarini O'zbek tilida to'liq o'rganish. Maqolada web scraping-ning tarix, asosiy ta'rifi, texnik asoslari, turli vositalar, qo'llanilish sohalari va xavflari keltiriladi. Shuningdek, web scraping-ni to'g'ri va shaffof ravishda qo'llash bo'yicha tavsiyalar va eng yaxshi amaliyotlar ham ko'rib chiqiladi.

2. Web Scraping-ning Ta'rifi, Texnik Asoslari va Usullari

2.1. Web Scraping-ning Ta'rifi va Tarixiy Rivoji: Web scraping veb-saytlardan avtomatik ravishda ma'lumotlarni ekstraktatsiya qiluvchi texnologiya. Bu jarayonda HTTP so'rovlar veb-serverga yuboriladi, HTML javoblar qabul qilinadi va keyin toza ma'lumotlar ekstraktatsiya qilinadi. Web scraping-ning ildizlari 1990-yillarning oxirida veb-saytlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Dastlab web scraping faqat kitob o'qish indexlari uchun qo'llanilgan, ammo bugun bozor monitoring, tanlama tadqiqotlari, ma'lumot tahlili va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda.

2.2. Web Scraping Turlarini va Usullari: Web scraping-ni quyidagicha ajratib bo'ladi: (1) Statik web scraping - HTML saytlardan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlarni ekstraktatsiya qilish; (2) Dinamik web scraping - JavaScript orqali yuklanadigan kontentni qabul qilish; (3) API-asosida yig'ish - to'g'ridan-to'g'ri REST yoki GraphQL API-lar orqali ma'lumotlarni olish. Shuningdek, web scraping usullarini HTML parsing, DOM manipulation, headless browsing va session management orqali amalga oshiriladi.

2.3. Web Scraping Asosiy Vositalar va Kutubxonalar

Dasturlash Tili	Kutubxona	Qo'llaniladigan Joylar	Xususiyatlari	Qiyinlik Darajasi
Python	BeautifulSoup	HTML/XML parsing	Sodda va tez	Past
Python	Selenium	Dinamik kontentlar	JavaScript qo'llash	O'rta
Python	Scrapy	Katta loyihalar	Framework	Yuqori
JavaScript	Puppeteer	Headless Chrome	Screenshot va PDF	O'rta
JavaScript	Cheerio	Node.js parsing	jQuery-ga o'xshash	Past
Java	Jsoup	HTML parsing	Oxshash BeautifulSoup	O'rta

Jadval 1. Web scraping-ning asosiy vositalar va kutubxonalarini

